Qo‘ng‘iroq o‘g‘risi

Tug‘ilganligimiz to‘g‘risidagi guvohnoma biz odamlar uchun eng asosiy hujjat hisoblanadi. Agar shu narsamiz bo‘lmasa, bizni kuyib-pishib boqayotgan, tarbiyalayotgan kimsalarning ota-onamiz ekanligini, haqiqatan ham shu yurt, shu millatga mansubligimizni birovlar xohlasa tan oladi, xohlamasa yo‘q. Fermadagi hayvonlarga bunaqa nodir qog‘oz berilmaydi. Chunki, o‘sha shildiroq qog‘ozni avaylab asrash uchun u sho‘ring qurg‘urlarda na zangkalitli sandiq bor, na pistonli cho‘ntak. Jonivorlarning qulog‘iga har xil raqamlar yozilgan yum-yumaloq mis tamg‘alar muhrlab qo‘yiladi xolos.

“Babachoq” fermasida ham tartib shunaqa: hayvon dunyoga keldi deguncha, birinchi galda uning qulog‘iga yopishishadi. Ushbu qissadagi barcha hangomalarning bosh sababchisi bo‘lgan jangari Uloqcha ham bu marosimni allaqachon boshdan kechirgan. Baldoq taqishning o‘ziga yarasha azob-uqubati borligini o‘g‘il bolalarga aytib, yana bir janjalli bahsni qo‘zib o‘tirmaylik. Buni isirg‘a taqib olib, o‘zini oynakka soladigan qizaloqlar yaxshi bilishadi.

Xullas, Uloqchamizning qulog‘iga 0099 raqamli baldoqcha osishib, uni hammaga taniqli qilib qo‘yishgan. Shunday qilishmaganda-ku, bu diqqinafas fermadan tezda juftakni rostlagan, birorta tinchroq xonadondagi erkin hayvonlar orasiga sekingina qo‘shilib olgan bo‘lardi.

Umuman olganda, “Babachoq” fermasida hamma narsa oshib-toshib yotibdi. Ombor to‘la yem, g‘aram-g‘aram pichanlar, issiqqina og‘ilxona. Buning ustiga, ular yotgan joylarni o‘z vaqtida tozalab, taglariga yumshoqqina arrato‘pon sepib qo‘yishadi. Shunga qaramay, Uloqcha fermani o‘lgudek yomon ko‘rar, bir xil turmush va qattiq tartib-intizom uning jon-joniga tegib ketgandi. Ayniqsa, har kuni erta tongda uning shirin uyqusini buzib, majburan yaylovga haydashgan paytda tomorqasi kengroq dehqonning xonaki echkisi bo‘lib tug‘ilmaganidan judayam afsuslanardi.

Dunyoga keliboq onasidan ayrilgan bu zumrasha ur-to‘palon hayotga boshqalardan oldinroq moslashishga urindi, hech bir mulohaza qilib o‘tirmay, duch kelgan qo‘y-echkini aralash-quralash emib ketaverdi. O‘zga uloq-qo‘zilarning rizqini qiyayotgan bu ochofatning biqiniga takalar ayamay kalla solishar, achchig‘ini bosolmagan qo‘chqorlar uni tiraqaylatib quva ketishardi. Yetim Uloqcha taka-yu qo‘chqorlarning zarbli suzishlaridan uch-to‘rt yumalanib, yana diriklab o‘rnidan turar, tanasidagi og‘riqlarni birpasda esdan chiqarib, andishasizlik bilan qaytadan oraga suqilardi. Ishtahang karnay bo‘lib turganda tortinchoqlikka balo bormi?

“Babachoq” fermasidagi hayvonlar oxiri bu surbet Uloqcha bilan o‘chakishmaydigan bo‘lib qolishdi. O‘zining qoniqarsiz xulqi bilan hammaning jig‘iga tegib yuruvchi olg‘ir qahramonimiz bo‘lak tengdoshlariga nisbatan ikki hissa ko‘p sut emib, baquvvat ulg‘aya boshladi.

Tartib bor joyda uni buzuvchilar ham uchrab turadi. Aks holda, “intizom” degan so‘zning sariq chaqalik qadr-qimmati qolmagan bo‘lardi. Bu gaplarni men ichimdan to‘qib aytayotganim yo‘q. “Babachoq” fermasidagi podaga bir necha yildan beri oqsoqollik qilib kelayotgan Nayzashox ismli Serkaning fikri ana shunday.

Nayzashox qanchalar qattiqqo‘l bo‘lmasin, ba’zan hatto kap-katta qo‘y-echkilar arzimagan narsa ustida san-manga borib qolishar, yoshlar esa o‘yinqaroqlik qilib, o‘zlariga yem solinadigan oxurni pachoqlab qo‘yishar yoki endigina bo‘rtib chiqayotgan muguzchalari bilan yaqindagina oqlangan devorni chalama-chakki chizib tashlashardi.

Lekin, 0099 raqamli Uloqcha oyoqqa mustahkamroq turib olgan kundan boshlab, oxurni pachoqlash, devorga chizish singari ishlar mayda bezoriliklar qatoriga tushib qoldi. Endigi yig‘ilishlarda birovlarning ovqatini zo‘ravonlarcha tortib olish, o‘z fermadoshini eti momataloq bo‘ladigan darajada do‘pposlash, yaylovda o‘zboshimchalik bilan podadan ajrab qolish kabi katta masalalar muhokamaga qo‘yila boshlandi.

Uloqcha hali to‘rt oylik bo‘lmay turib, besh marta “hayfsan” olishga ulgurdi. “Hayfsan” oldingmi, uch kun davomida ma’ramay yurishga majbursan. Shunchaki “mi” deb qo‘ysang ham, kechqurungi kepakli teritdan mahrumsan. Uch kun jim yurishga chidash – o‘limdan sal mundog‘roq-da.

Uloqchaning yoshi ulg‘aygan sayin uning nuqsonlari ham kattaya bordi. Manmanlik, yolg‘onchilik va muttahamlikdan tashqari unda xudbinlik, amalparastlik alomatlari shakllana boshladi. Avvaliga, podaning oldingi safida yuruvchi keksa hayvonlar orasiga suqilib kirdi. Keyinchalik, yanayam oldiroqqa o‘tib, oqsoqol bilan deyarli yonma-yon odimlaydigan qiliq chiqardi. Hatto oqsoqolning fermadagi birinchi laganbardori hisoblanmish Sulla laqabli Taka ham shu mahalgacha bunday qilishga botinolmagan edi.

Qattiqqo‘l Nayzashox, negadir, bu betamizlikka ortiqcha ahamiyat berib o‘tirmadi. Balki uning so‘qqabosh yetimchaga ozor bergisi kelmagandir, balki qandaydir tirmizak bilan hadeb xirillashaverish me’dasiga tekkandir, uyog‘i bizga qorong‘i.

Hovliqmachilik va mansabparastlik juda yomon narsa. Bu dardga duchor bo‘ldingmi, o‘z boshingga keladigan balolarga o‘zing zamin hozirlayotganingni payqamay qolasan. Kunlardan bir kuni 0099 raqamli Uloqcha qo‘rsayganicha oqsoqoldan oldinga o‘tib, oliftanamo odimlay boshladi. Bu endi eng uchchiga chiqqan intizomsizlik edi. Nayzashox asta ortga o‘girilib, Sullaga ma’nodor ko‘z qisib qo‘ydi. Nihoyat xo‘jayinning toqati toq bo‘lganini fahmlagan Sulla bora solib, tartibbuzar Uloqchaning chap qovurg‘asiga gupira-qars kalla qo‘ydi. Ana endi osmonda tipirchilab aylanishni ko‘ring-u, gupillab yerga tushishni tomosha qiling!

Beti bezlashib ketgan qahramonimiz shundan keyin ham podaning oldingi qatorlarida o‘ralashishdan voz kechmagan bo‘lsa-da, harqalay boshliqdan ilgariroqqa o‘tib yurishga yuragi chopmay qoldi.

Uloqcha o‘taketgan kekchi edi. U biqinidagi og‘riqlar tiyilganidan so‘ng ham Sullani kechirolmadi. Qayerdandir bir bo‘lak kirsovun topib, uni depsib maydaladi va raqibining oxuridagi yemga sekingina aralashtirib qo‘ydi. Ko‘p o‘tmay, Sullaning junlari tullab, tasqara bir qiyofaga kirdiki, yaqin oshnalari ham undan jirkanib, nariroqda yuradigan bo‘lishdi.

“Bu kuningdan battar bo‘l! – deya ich-ichidan quvonib qo‘yardi Uloqcha, Sullaning ahvolini ko‘rib. – Xo‘jayinga yaxshi ko‘rinaman deb, boshqalarni tepalashning oqibati shunaqa bo‘ladi”.

Navro‘z oyining so‘nggi tongi “Babachoq” fermasiga bezovtalik olib keldi. Ilk sahardayoq misli ko‘rilmagan to‘s-to‘palon boshlandi. Nayzashoxning bo‘ynidagi kumush qo‘ng‘iroq tuyqus yo‘qolgani haqidagi xabar og‘izdan-og‘izga o‘tib, hammani notinch qildi. Oqsoqolning Sulla boshchiligidagi bir to‘p xushomadgo‘ylari fermadagi barcha kavak-kandiklarni, o‘ra-xandaqlarni, oxur va chelaklarni erinmay tintib chiqishdi. Qo‘ng‘iroq hech qayerdan topilmadi. Shundan keyin, fermadagi borliq qo‘y-echkilar bola-baqralari bilan maydonga saflansin, degan buyruq berildi. Hayvonlar belgilangan joyda yig‘ilib, yo‘qlama o‘tkizilgach, 0099 raqamli bevosh Uloqchaning o‘z o‘rnida emasligi ma’lum bo‘ldi.

– Aha! Ana, qo‘ng‘iroq kimda ekan! – xirqirab qichqirdi, terisiga qo‘tir tusha boshlagan Sulla. – Bilardim shunaqa bo‘lishini!

Serkaning qo‘ng‘iroqsiz qolishi qirolning tojdan ayrilishi singari katta ko‘ngilsizlik hisoblanadi. Podada nima ko‘p – taka ko‘p. Biroq, ana shu erkak echkilardan faqatgina bittasi Serka deyiladi. Serka bo‘ynidagi qo‘ng‘irog‘ini jingillatib qayoqqa yursa, o‘zga hayvonlar unga ergashishga majbur. Qoida shunaqa.

Hammaning ko‘zi oqsoqolda edi. Nayzashox motamsaro qiyofada bir zum sukut saqlab turgach, mungli tovushda dedi:

– Ikkita nol-u ikkita to‘qqiz raqamli qaroqchi endi shafqatimizdan mahrumdir. Uni tutib keltirgan jonivor besh paqir kunjara bilan mukofotlangay. Ammo, mukofotdan

bo‘kib o‘ladigan bo‘lsa, uyog‘iga javobgar emasmiz.

Bu gapdan hammaning nafsi jikillab, yaloqilarcha tamshanib qo‘yishdi.

Bilimdon

Shudringlar quyosh taftidan bug‘lana boshlagan sari maysalardagi yoqutrang nurlar asta-sekin so‘nib, yaylov yana odmi tusga kirdi. Xuddi shu pallada o‘ziga bino qo‘ygan shalpangquloq bir maxluq o‘tloqqa tashrif buyurdi. Bu Bilimdon laqabli Eshak edi.

Bilimdon juda ko‘p narsaga qiziqar, hamma narsani bilishni istar, ayrim jumboqlar ustida kechalari bilan mijja qoqmay bosh qotirardi. Masalan, “Nima uchun yoz faslida qor yog‘maydi”, degan chigal bir savol uni uzoq vaqt bezovta qilib yurdi. Tinmay o‘ylayverib, oxiri shunday xulosaga keldi: “Qor yozda ham yog‘adi, ammo issiqdan osmonning o‘zidayoq erib ketaveradi”.

Keyin u “Toki yer yuzida Ot bilan Eshakday mukammal hayvonlar bor ekan, Xachir degan bachkana narsa nima maqsadda yaratilgan”, deyiluvchi savoldan iborat ulkan masala ustida fikr yurita boshladi. Fikrlay-fikrlay, nihoyat jo‘yali javob topdi. Uning aytishiga qaraganda, dunyo shunday sirli tuzilgan ekanki, ikkita zo‘r narsaning o‘rtasida bitta qandaydir silqindining ham bo‘lishi tabiiy hol emish. “Chunonchi, ma’danga boy tog‘lar bilan mevazor bog‘lar oralig‘ida tap-taqir adirlar bor”, deya fikrini isbotlashga tirishardi u.

Hayot juda qiziq narsa. O‘lib-tirilib bitta jumboqni hal qilganingda, o‘sha zahoti oldingda boshqasi ko‘ndalang bo‘lib turaveradi. Eshak so‘nggi paytlarda behad chalkash bir masalani o‘ylab, miyasining qatig‘ini qaynatib yuribdi. Uning zahmatkash kallasida: “Odamlar nima uchun Mushukni quchog‘iga o‘tqazib erkalatishadi-yu, Eshakni esa minishadi”, degan savol charxpalakdek aylangani-aylangan. Afsuski, hali-hozir bunga javob topolgani yo‘q.

Shu topda ham, ishtaha bilan ajriq kavshab, ana shu to‘g‘risida o‘ylay boshlagan edi, “Vey, Eshshak!” – degan haqoratomuz tovushni eshitib, jahllanib ortga o‘grildi. Uning qarshisida bo‘yniga qo‘ng‘iroq ilib olgan o‘yinqaroq Uloqcha turardi. Eshak kalondimog‘lik bilan burnini jiyirib, o‘shqirdi:

– Bir tepishda to‘rttala tuyog‘ingni osmondan qilgayman! Meni “eshak” deyishga qanday tiling bordi?

Eshakning baqirishidan ne-ne hayvonlar talvasaga tushmagan deysiz. Uloqcha bo‘lsa, miq etib qo‘ymadi.

– Meni aldab bo‘psan, – deya bamaylixotir javob qildi u. – Yo‘lbars emasliging shundoqqina ko‘rinib turibdi. Xex-xex-xe…

– Senga aytib qo‘yayin, tirrancha, – ko‘krak kerib hangradi Eshak. – Meni Bilimdon deydilar! Bundan keyin og‘zingga qarab gapirgaysan. Maylimi?

Eshak o‘zini aqlli mavjudot qilib ko‘rsatishga urinayotgani Uloqchaning kulgisini qistatdi.

– Ho‘, o‘qimagan! – tap tortmay gapni davom ettirdi u. – O‘zing eshaksan-u, nega endi oting Bilimdon bo‘larkan?

Eshak gerdaygan kuyi unga yaqinroq keldi:

– Chunki, men hamma narsani bilaveraman. Hatto o‘ngacha sanashniyam bemalol eplashtiramiz. Mana, eshit: bir, olti, uch, sakkiz, o‘n! Qoyilmisan endi?

– To‘g‘ri sanading, – sir boy bermay chimrildi Uloqcha. – Sanashni men ham bilaman. Ishonmasang, bir bog‘ xashakdan garov o‘ynaymiz.

Eshak chiranchoq Uloqchaga diqqat bilan boshdan-oyoq nazar solib chiqdi. Keyin uning qayoqdan kelib qolganini surishtirdi. Uloqcha burnini yuqori ko‘tarib, bo‘ynidagi qo‘ng‘irog‘ini faxr bilan jiringlatdi:

– Kumush qo‘ng‘irog‘imni ko‘ryapsanmi? Fermadan yuborishdi meni. Endi shu yaylovga oqsoqollik qilaman.

– Qarang-ga, qarang-ga! – uni masxaralab tirjaydi Eshak. – Bo‘lak oqsoqol qurib ketganakan-da, a, echkivachcha?

Bu gapni eshitib, Uloqchaning fe’li aynidi. Eshakni suzmoqchidek, boshini pastga egib, tuyog‘ida yerni timdaladi.

– Qaytib “echkivvachcha” deydigan bo‘lsang, seni yaylovda hangrash huquqidan mahrum qilaman! – deb o‘dag‘ayladi u. – Shalpang quloqlaring bilan uqib olginki, bugundan boshlab meni “hurmatli oqsoqol”, yo bo‘lmasa, “hukmdorim” deb chaqirishing kerak!

Eshakning birdan dumi qisilib, ko‘zi bejo o‘ynadi. Uloqcha endi qittak yumshab, muloyimroq ohangda so‘z qotdi:

– Agar-r… chizgan chizig‘imdan chiqmaslikka so‘z bersang, aytaylikki… seni o‘zimga yordamchi qilib olishim ham mumkin.

Eshak beqiyos aql-u farosati bilan shu yoshgacha biron-bir mansabga ega emasligidan juda o‘ksinib yurardi. Hozirgi sha’madan keyin uning bo‘zraygan ko‘zlari to‘satdan yorqin chaqnab ketdi. Gapni cho‘zib o‘tirmay, yordamchi degan lavozim unga qanaqa foyda keltirishini

surishtirdi. Uloqchaning “boshliq bilan yordamchi yaylovning eng sero‘t joyida tamaddilanish huquqiga ega bo‘ladi”, degan so‘zini eshitib, quvonchdan dumi o‘ynadi.

– Manavi boshqa gap! – gijinglab turib, dimog‘ida po‘ng‘illadi Eshak. – Agar va’dangda tursang, hozirdan boshlab gapingdan chiqmagayman, echkivachcha.

– Nima deding? – chaqchaydi Uloqcha. – He, tiling kesilgur!

– Ke… ke… kechirgaysiz, – aybini yuvishga urinib, Uloqchani sizlay boshladi Eshak. – M… men “hukmdorim” demoqchi bo‘luvdim. Ha, manashunaqa!

Uloqcha yengil tin olib, Eshakning ko‘zlariga sinchiklab tikildi.

– Mana, sen bilan kelishib oldik, – dedi u, haqiqiy boshliqlardek miyig‘ida jilmayib. – Endi boshqalarni tartibga solishimiz kerak.

Uloqcha sopolrang ko‘zlarini jovdiratib, atrofga alangladi-da, takroran Eshakka yuzlandi:

– Aytganday, boshqalar qani?

– Bugun yakshanba bo‘lsa kerak, – axborot berdi Eshak. – Mendan bo‘lak hamma hayvon yakshanba kuni dam olgay.

Buni eshitib, Uloqchaning achchig‘i chiqdi:

– Nima-nima? Yaylovdagilarga yakshanbada dam olishni kim qo‘yibdi? Butun qish bo‘yi og‘ilxonadan chiqmay yem chaynashgani kammi ularga? O‘zboshimchalik

bu! Tushundingmi?

– Tushunganda qandoq! – askarchasiga qaddini g‘ozladi Eshak. – Nima, kallam oshqovoqmidi?

Kumush qo‘ng‘iroqli boshliq hozirgina lavozimga tayinlangan shalpangquloq yordamchisiga dastlabki topshiriqni berdi.

– G‘irillab borib, o‘sha yalqovlarni tezda yaylovga yetaklab kel, – shohona qiyofada buyurdi u. – Katta yig‘ilish o‘tkazamiz. Kelgunlaringcha, men tevarak-atrofni aylanib, yaylovning ahvoli bilan tanishib turaman.

Eshak yana qaddini rostladi:

– Xo‘p bo‘ladi, hukmdorim!

Eshak bir shattalab ortga burildi-da, so‘qmoqni changitganicha, qishloq tomonga poyga qo‘ydi. Uloqcha labining chetida mamnun iljaydi.

“Mana, bu to‘s-to‘palon yaylovdayam tartib o‘rnatadigan bo‘ldik, – bo‘ynidagi qo‘ng‘iroqni siypalab o‘yladi u. – Endi ahmoqlarga oz-moz aql o‘rgatamiz. Aqllilarning tilini tiyib qo‘yamiz. Mahmadanalar bizga to‘g‘ri kelmaydi. Gap degani o‘zimizdayam yetarli”.

Uloqcha yaylovni ko‘zdan kechirishga kirishdi. Yo‘l-yo‘lakay uyer-buyerdagi o‘tlarni labida chimdilab, har qaysi joyning ta’mini imkon qadar eslab qola boshladi.

Tanishuv

Eshshaklarga kulmanglar,

Ular bari polvondir.

Eshshaklarning aqli kam –

Degan gaplar yolg‘ondir,

Eshshaklarga kulmanglar.

Eshshaklarga kulmanglar,

Og‘ir yukni tortishsa.

Aslo kulmas edingiz

Yukni sizga ortishsa,

Eshshaklarga kulmanglar-a-r…

Eshak ashula aytganicha qishloqqa kirib kelib, hammadan oldin bu atrofdagi eng keksa va obro‘li hayvon hisoblangan Ho‘kiz og‘aning huzuriga bordi. Daraxtning ostiga yonboshlab olib, bo‘yni yetadigan joylardagi o‘t-o‘lanni ermak qilib yotgan Ho‘kiz og‘a Eshakning salomiga erinibgina bosh qimirlatdi.

– Ha, Bilimdon, nima gap?.

– Fermadan bizga oqsoqol yuboribdilar, – deb hangradi Eshak. – Hammamiz yaylovga marhamat qilgaymiz. Katta majlis bo‘ladurmish.

Ho‘kiz og‘a peshanasini tirishtirib, sekin o‘rnidan turdi. Yelkasini daraxtga ishqalab qashlarkan, o‘zicha g‘udrandi:

– O‘lay agar bu dunyoning ishlariga tushunsam. Fermasi qayerda-yu, oqsoqoli kim bo‘ldiykin? Ishqilib, qarigan paytimda meni yana omoch sudrashga majbur qilishmasin-da…

Eshak hangira-hangir qilib yurib, boshqa hayvonlarni ham bir zumda yig‘ib keldi. Ho‘kiz og‘a ularga qo‘shilib, yaylov sari noxush odimlab borarkan, yo‘l-yo‘lakay Eshakdan so‘radi:

– Menga qara, Bilimdon. O‘sha oqsoqoling kim o‘zi?

Eshak har ehtimolga qarshi tevarakka olazirak elovlab olib, pastroq tovushda dedi:

– Ochig‘ini aytgaymizki, o‘zi ko‘rimsizgina bir Uloq. Lekin, qarangki, o‘sha echkivachchaning bo‘ynida kumush qo‘ng‘irog‘i bor!

– Qo‘ng‘iroq rostdanam o‘zinikimikin, hov? – deya tilini osiltirib gap qistirdi Olapar ismli It. – Menimcha, seni laqillatgandir-ov, vov!

Ko‘pdan buyon shubhasini aytishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib turgan qiziqqon Bo‘taloq bu gapdan keyin tiliga erk berib, dangal so‘z boshladi:

– Olapar to‘g‘ri aytyapti. O‘sha echkivachchaning shartta dumini tugib, kelgan joyiga qaytarib quvish kerak. Borib ammasiga oqsoqollik qilsin!

– To‘g‘ri! – dedi Qo‘zichoq, Bo‘taloqning fikrini ma’qullab.

– Menimcha, bunday qilish yaxshimas, – o‘z odatiga ko‘ra, bosiqlik bilan munosabat bildirdi Ho‘kiz og‘a. – Avval u bilan to‘g‘rilikcha gaplashib ko‘rganimiz tuzuk. Qani, maqsadini bilaylik-chi.

Qo‘zichoq bu safar ham boshini qimirlatdi:

– To‘g‘ri!

– Ho‘kiz og‘aning gapida jon bor, – Bo‘taloqdan ko‘ra mulohazaliroq ekanini barchaga bildirib qo‘yish uchun ataylab salmoqli tarzda so‘zladi Eshak. – Oldin yaxshilikcha fikrlashib ko‘rgaymiz. Agar mendek

polvonniyam aldashga botingan bo‘lsa, o‘sha echkivachchani shaxsan o‘zim…

Eshakning karillashi kekirtagida qoldi. Do‘nglik ortidan Uloqcha chiqib kelayotganini ko‘rib, darrov o‘zini o‘ngladi va shaxdam odimlab, uning istiqboliga yurdi:

– Podani yig‘ib keldim, hukmdorim!

Uloqcha: “Senga rahmatnoma e’lon qilaman, Bilimdon”, deya Eshakni og‘zaki rag‘batlantirgan bo‘ldi. So‘ng, boshqa hayvonlarga yuzlanib, ularga naridan-beri razm solgach, dabdabali ohangda murojaat qildi:

– Salom, hayvonlar!

Hayvonlar birin-ketin ma’rab-mo‘vrab alik olishdi. Eng oxirida Olapar cho‘ziq vovullab qo‘ydi. Oqsoqol aftini burishtirib, unga hafsalasiz tikildi.

– Yaylov bu o‘txo‘r hayvonlarning joyi, – Olaparni zarracha mensimasdan so‘z qotdi u. – Sen bu yerda nima qilib yuribsan, itdan tarqagan?

Bo‘ribosar ajdodlarining arvohini bezovtalantiruvchi muomaladan jahli chiqqan Olapar burnini titratib, qulog‘ini dikkaytirdi. Lekin, vakolati hozircha noma’lum bo‘lgan oqsoqolga o‘chakishishdan o‘zini tiyib, vazifasi Qo‘zichoqni yaylovda qo‘riqlab yurishdan iborat ekanligini yotig‘i bilan tushuntirishga intildi.

– Qo‘zichoqqa poyloqchilik qilishingga ruxsat berishim mumkin, – deya Itga biroz yon bosgan bo‘ldi Uloqcha. – Biroq, seni yaylovda akillash huquqidan mahrum qilaman!

Biz qorinni to‘ydirib dam olayotganimizda, sen atrofimizda ulib yurishing tartibga xilof narsa.

Nima deyishini bilmay qolgan Olapar Ho‘kiz og‘aga zimdan iltijoli qarab qo‘ydi. Olaparga qolsa-ku, bunaqa betasir xo‘jayinlardan o‘ntasini birpasda piypalab tashlagan bo‘lardi. Ammo, ko‘pchilikning, ko‘pchilik bo‘lgandayam, eski qadrdonlarining rayiga qaramay ish ko‘rish butkul odobsizlik hisoblanardi. Shuni o‘ylab, tishini tishiga qo‘yib turardi.

Ho‘kiz og‘a Itning ahvoliga tushunib, sabringga balli, degandek, unga ma’nodor bosh likillatdi. So‘ng Uloqchaga yuzlanib, dedi:

– Bu adolatdan emas, oqsoqol. Olapar ko‘pdan beri biz bilan birga yashaydi. Barimiz aka-ukadek bo‘pketganmiz.

– Judayam noto‘g‘ri mo‘vrayapsiz, – deya Ho‘kiz og‘aga e’tiroz bildirdi Uloqcha. – Siz ukam deb atayotgan bu It bir kunmas bir kuni birontamizning suyagimizni “qirt-qirt, qirt-qirt, qirt-qirt” qilib g‘ajishi mumkin. Xo‘sh, shumi adolat?

Ho‘kiz og‘aning birdan g‘ashi kelib, bezanglaganicha yerni tepkilay boshladi. Uloqcha unga taajjublanib boqayotganini ko‘rgan Eshak, shosha-pisha izoh berdi:

– Iltimos, hukmdorim, Ho‘kiz og‘aga bundan keyin “xo‘sh” degan gapni ishlatmagaysiz. Bu zot “xo‘sh” degan gapni yomon ko‘radurlar.

– Sizdan qaytarib so‘rayapman, Ho‘kiz og‘a, – deya o‘zini yana qozilikka soldi Uloqcha. – Suyagimizni rohatlanib g‘ajiydigan mahluq bizga do‘st bo‘lishi mumkinmi?

O‘zining ortiqcha donoligi bilan emas, balki salobati bilan birovlarga so‘zini o‘tkazishga o‘rganib qolgan keksa Ho‘kiz mahmadana Uloqchaning unchalar qaltis bo‘lmagan savoliga javob topolmay, tili

tutilib qoldi. Bundan foydalangan oqsoqol hukmini koʻpchilikka tasdiqlatib olishga urindi:

– Shunday qilib, hammamiz bir qarorga keldik, ya’ni Olapar yaylovda vovillash huquqidan mahrum etildi. Bugundan boshlab, uning bu oʻrtada akillaganini eshitmasligimiz kerak.

Yangicha tartibning birinchi qurboni boʻlgan It, tarafimni oladiganlar topilib qolar, degan umidda koʻzini jovdiratib, turganlarga bir-bir qarab chiqdi. Qishloqdoshlari undan koʻzlarini olib qochishayotganini koʻrib, birdan ma’yus tortdi.

– Ir-r, xap! – deb alam bilan soʻz boshladi Olapar. – Demak, endi men gʻing demasdan yurishim lozim. Shunaqami?

Olaparning qishloqdoshlari unga oʻngʻaysizlanib qarab qoʻyishib, yana boshlarini egishdi.

– Men bunday yasholmayman, ogʻaynilar, – xazin soʻzlashda davom etdi Olapar. – Oʻzlaring oʻylab koʻringlar, yaylovdan begonalar oʻtib qolgudek boʻlsa, qanday qilib ularga akillamasdan tura olaman? Yo boʻlmasa, bironta lochin Qoʻzichoqning ustida aylanib qoldi deylik. Bunaqada hurimasdan boʻladimi? Aytinglar, hov, vov-vov! Meni kechqurunlari zanjirga bogʻlab qoʻyishgani ham yetar. Hech boʻlmasa, vovullab turmasam bu kunimdan oʻlganim ming marta yaxshi. Endi sizlar bilan yaylovda yurolmayman, ogʻaynilar. Men qishloqqa ketaman. Xayr, ir-r!

Oʻzining itlik sha’nini barcha narsadan ustun qoʻyib oʻrgangan Olapar noshud doʻstlaridan arazlab, shartta orqaga burildi-da, xafagarchilikdan dumini sudraganicha qishloqqa qaytib ketdi.

Hoʻkiz ogʻa tahqirlangan Olaparning ortidan bir necha fursat xomush termilib turgach, Uloqchaga bosiqlik bilan moʻvradi:

– Baribir yaxshi ish boʻlmadi, oqsoqol. Bu It umrida hech birimizga dushmanlik qilmaganidi.

– Lekin, doʻst ham emas! – tagʻin oʻzinikini maʼqulladi Uloqcha. – Oʻtxoʻr oʻtni oʻylaydi, suyakxoʻr – suyakni. Ikkala gala aralashgan joyda qon toʻkiladi.

Hoʻkiz ogʻa picha mulohazalanib olib, dedi:

– Toʻgʻri, It – suyakxoʻr, ammo yirtqich emas. Shu narsaning farqiga bormading shekilli, oqsoqol…

Janjal

Tuyalar kenglik va erkinlikni, hattoki, hayot uchun eng zarur boʻlgan toʻqlik va halovatdan ham ustun qoʻyishadi. Karvonboshilarning gapi chin boʻlsa, tuyalar saksovulni avliyo oʻsimlik hisoblashar, uning qarshisida choʻk tushishib, “Bizni tor koʻchalarda yurish-u, sassiq ogʻilxonalarda yotishdan asragin”, deya iltijo qilishar ekan. Ota-bobolarining bu xususiyati Boʻtaloqqa ham qon orqali ozmi-koʻp oʻtgan boʻlib, har qanday taʼqib va cheklashlarni oʻlgudek yomon koʻrardi.

Baxti qora Olapar oʻksinganicha qishloq tomon yoʻl olganidan soʻng, oqsoqolning poyqadami yaylovga qutlugʻ kelmaganini sezgan Boʻtaloq tajanglanib pixilladi. Hoʻkiz ogʻa: “Shu narsaning farqiga bormading shekilli, oqsoqol”, deya bosh tebratganida, yana oʻzini tutib turolmadi.

– Bu qanaqasiga oqsoqol boʻlsin, Hoʻkiz ogʻa? – deb jirilladi u. – Bizni bir-birimizga gij-gijlash uchun oramizga kirvolgan gʻalamis bu!

– Toʻgʻri! – dedi Qoʻzichoq.

Endigina amalga mindim deganida, ishning chappasiga ketayotganidan tashvishlangan Eshak g‘alayonchi Bo‘taloqning tilini tiyib qo‘yishga oshiqib, ko‘zini ola-kula qildi:

– O‘pkangni bosvol, Bo‘taloq! Oqsoqol to‘g‘ri qildilar. Biz o‘t yegaymiz, It yemagay. Bunaqa oliftachilik bizga hurmatsizlikdur.

Qo‘zichoq bu gal Eshakning yonini oldi:

– To‘g‘ri!

– Mug‘ambir echkivachcha Bilimdonni o‘ziga og‘dirib olganga o‘xshaydi, – atrofdagilarni hushyorroq bo‘lishga chorladi Bo‘taloq. – Eshak bizga sotqinlik qilyapti, birodarlar.

– To‘g‘ri! – o‘ylanib o‘tirmay qichqirdi Qo‘zichoq.

Eshakning ko‘zlari tuyqus bejo o‘ynab ketdi. Siri ochilib qolishidan cho‘chib, Bo‘taloqqa bor ovozda davara qildi:

– Nimalar deyapsan, bukri? Meni hali hech kim bozorga solmagan. Men biror marta sotilmaganman. Va sotilmagayman!

Bo‘taloq pandavaqi Eshakning gaplariga parvo qilmay, bu jikkak Uloqchaning haqiqiy oqsoqolligiga baribir ishonmasligi, bo‘ynidagi qo‘ng‘iroqni biron joydan o‘margan bo‘lishi mumkinligini aytib, o‘z fikrida turib oldi. Boshqalarda ham ikkilanishga o‘xshagan kayfiyat paydo bo‘ldi.

Uloqcha hali juda yosh esa-da, sal narsaga dovdirab qoladiganlar toifasidan emasdi. U, qay vaziyatda bo‘lmasin, raqibini chalg‘itishga, undan ustun kelishga urinar, taxlikaga tushganini na ko‘zidan, na xatti-harakatidan sezib bo‘lardi. Tabiiyki, bu safar ham bo‘sh kelmadi.

– Vey, beli do‘ngalak! – deya Bo‘taloqqa sapchilandi u. – Ming marta shukur qilginki, “Babachoq” fermasida emassan. Yo‘qsa, oqsoqolni tan olmaganing uchun allaqachon go‘shtga tortilgan bo‘larding!

– Tupurdim o‘sha fermangga! – tap tortmay bo‘kirdi jizzaki Bo‘taloq. – Fermang ham, hayvonlarni go‘shtga tortadigan tarozing ham o‘zingga buyursin.

Mabodo, bu jinqarchaning fermadan yuborilgan oqsoqolligi rost bo‘lsa, uni haqoratlashning oqibati yaxshilikka olib bormasligidan xavfsiragan Ho‘kiz og‘a avjlanayotgan janjalni bosishga, masalani shovqin-suronsiz hal etishga urindi. U tumshug‘ining uchini Bo‘taloqqa to‘g‘rilab, “picha jim bo‘l” degandek, ko‘zini lo‘q qilib turgach, Uloqchaga yuzlanib, muloyim tarzda gap boshladi:

– Ko‘nglingga olmagin-u, uka, seni yuqoridan xo‘jayin qilib yuborishganiga jamoatning ishongisi kelmayapti. Sen bo‘yningdagi qo‘ng‘iroqni pesh qilyapsan. Kim biladi, balki uni haqiqatanam biror joydan o‘g‘irlagandirsan. Bunaqa narsani ba’zan yo‘ldan topvolish ham mumkin. Oqsoqolligingni isbotlovchi boshqa durustroq dalil ko‘rsatsang, yaxshi bo‘lardi.

Hanuz qoni qaynab turgan Bo‘taloq po‘pisa aralash gap qistirdi:

– Bilvol! Boshqa daliling bo‘lmasa, ketingga tepib haydaymiz!

Uloqcha qanchalar surbet bo‘lmasin, oldiga qo‘yilgan yangi talabni eshitib, andak esankirab qoldi. Ahvolini boshqalarga sezdirmaslik uchun o‘zini iloji boricha xotirjam tutishga tirishib, ko‘z suzganicha xiyol iljaydi. Bu turishidan “boshqa dalil ham bor, lekin uni sizlarga ko‘rsatish shartmikin”, degan ma’noni uqish mumkin edi.

– Boshqa dalil kerak denglar? – deya, turganlarga pisandsiz ko‘z yugurtib chiqdi u. – Obbo, sizlar-ey…

Uloqcha shunday dedi-yu, gapni qanday davom ettirishni bilmay, boshini qashladi. Qashinayotganida oldingi tuyoqchasi bexosdan qulog‘idagi mis tamg‘aga tegdi. Shu zahoti Uloqchaning boshida yarq etib bir fikr chaqnadi-yu, chehrasi yorishdi.

– Dalil bor! – deb qichqirdi u. – Mana, boshqa dalil! Qulog‘imdagi misni ko‘ryapsizlarmi? Oqsoqollik tamg‘asi bu. Raqamlariyam bor.

Uloqcha tegrasida turganlarga qulog‘ini bir-bir ko‘rsatib: “Ishonmasanglar, o‘qib ko‘ringlar. Oralaringda savodlilar topiladimi?!” – deb davrani aylanayotganida, Eshak: “Savod, mana, bizda bor, o‘ngacha sanashni bilgayman”, deya oldinga chiqib, tamg‘aga uzoq tikilib qoldi. Eshakning bezovtalanayotganini ko‘rib, hamma hayvonlar singari u ham g‘irt savodsiz ekanini payqagan Uloqcha o‘z yordamchisiga ko‘maklashgisi keldi:

– Nol, nol, to‘qson to‘qqiz deb yozilgan. To‘g‘rimi?

Bu so‘z Eshakning joniga ora kirib: “Qarang-ga, shunaqa deb yozishibdi-ya”, deya hangradi. Uloqcha endi qulog‘ini Ho‘kiz og‘aga tutdi:

– Bu tamg‘ani fermada yopishtirishgan. Yana qanaqa dalil kerak, xo‘sh?

Ho‘kiz og‘aning birdan burni titrab: “Yana “xo‘sh” deydi-ya, yana “xo‘sh” deydi-ya”, deb, joyida depsina boshladi. “Babachoq” fermasida faqat qo‘y-echkilargina boqilar, Uloqcha boshqa turdagi hayvonlarni ko‘rmay ulg‘aygan, shu bois, ularning fe’l-atvoridan ham bexabar edi.

Endi, ho‘kizlar “xo‘sh” degan so‘zni nega yoqtirmasligiga to‘xtalib o‘taylik. Odamlar bu jonivorlardan asosan dehqonchilikda foydalanishadi, ya’ni ularga omoch qo‘shib, yer haydashadi. Omochni sudrab borayotgan ho‘kiz mabodo izdan sal chetga chiqadigan bo‘lsa,

qo‘shchi: “Xo‘sh! Xo‘shka!” – deb uni bir qamchilab qo‘yadi. Ho‘kiz zoti “xo‘sh” degan gapni eshitganda, bir sapchib tushishi shundan.

– Sizga aytuvdim-ku, hukmdorim, – Uloqchani takror ogohlantirgan bo‘ldi Eshak. – Ho‘kiz og‘a “xo‘sh” desalar achchig‘langay.

– Uzr, bilmasdan “xo‘sh” devoribman, – deya Ho‘kiz og‘ani tinchlantirdi Uloqcha va qulog‘ini unga yaqinroq tutdi. – Mana, tamg‘ani yaxshilab ko‘rvoling.

Ho‘kiz og‘a o‘zini bosib olib, tamg‘aga bor diqqatini jamlab tikildi. Misni oldin hidladi, keyin sal yalab ko‘rdi, “um-m” deya picha mulohazalanib turdi.

– Tamg‘a quloqqa judayam o‘xshatib chaplangan, – dedi u, nihoyat sheriklariga yuzlanib. – Bunaqa nozik ish ancha-muncha hayvonning qo‘lidan kelmaydi. Uloqchaning fermadan yuborilgani, menimcha, to‘g‘ri.

Eshak bu gapdan yanada jonlandi:

– Aytuvdim-ku, bu oqsoqol haqiqiy deb. Nima, kallam oshqovoqmidi?

Bo‘taloqning ko‘ngli battardan xijillashdi. Uning tanasidagi har bir tomchi qon erkka tashna, badanidagi har bir tuk ta’qibga dushman edi. Qandaydir echkicha bo‘ynidagi kumush qo‘ng‘iroq va qulog‘idagi mis tamg‘aga asoslanib, endilikda ularga xohlagan buyrug‘ini berishi mumkinligi Bo‘taloqqa behad alam qilayotgandi.

– Sizlarga tushunmayapman, birodarlar, – belini qayishtirib, gavdasiga qaraganda juda qisqa ko‘rinuvchi dumini tikkaytirdi u. – Haqiqiymi, qalbakimi, o‘zi bizga oqsoqolning nima keragi bor? Oqsoqol degani bizga qo‘shimcha yem yoki xashak berib tursa, boshqa gap edi.

Buyruqni yeb bo‘lmasligini hammamiz bilamiz. Shunday ekan, bunaqa xo‘jayinni bir tepib, fermasiga uchirvorsak-chi!

Boshqa hayvonlardan biron-bir sado chiqmadi. Shunda, Uloqcha Bo‘taloqqa salmoqlanib yaqinlashdi-da, dag‘dag‘ani kuchaytirdi:

– Ho‘, o‘qimagan! Siyosiy tomondan g‘irt jinni ekansan! O‘z yaylovingdan tashqarida nimalar bo‘layotganini bilasanmi? Hamma joyda ahvol shu – har kim xohlaganday yashashga chek qo‘yilib, jamoa bo‘lib kun ko‘rishga o‘tilyapti, tartib-intizom o‘rnatilyapti. Mabodo, meni haydasanglar, mendan kuchlirog‘ini yuborishadi. Masalan, qulog‘iga oqsoqollik tamg‘asi yopishtirilgan Yo‘lbars sendaqalarni tezda mulla qipqo‘ygan bo‘lardi.

– Qanaqa tartib-intizomni gapiryapsan? – jirillashdan tiyilmadi Bo‘taloq. – Sen kelmasingdan burun tinchgina tirikchilik qilib yuruvdik. Oramizga qo‘shilding-u, yaylovda to‘palon boshlandi. Shumi tartib o‘rnatish?

Uloqchaning o‘rnida boshqa hayvon bo‘lganida, mantiqqa tayanib aytilgan bu so‘zdan esankirab, jo‘yali javob topolmay qolishi hech gap emasdi. Biroq, bizning qahramonimiz “mantiq”, “asosli fikr” degan narsalar bilan hisoblashib o‘tiradigan anoyilar sirasiga kirmasdi. Shu bois, qittay ikkilanmasdan, dangal javob qildi:

– Tinch joyda tartib o‘rnatib bo‘larkanmi, xumbosh? Tartib o‘rnatish uchun, qoidaga ko‘ra, oldin to‘palon chiqarish kerak bo‘ladi!

– Qarang-ga! – Uloqchaning donoligiga qoyil qoldi Eshak. – Mana gap qayerda ekan!

Bo‘taloq bir surbet Uloqchaga, bir qo‘rqoq va go‘l sheriklariga qarab qo‘yib, jahl bilan chetga tufladi.

Eng baxtli hayvon

Qo‘zichoq sodda va lallaygan bo‘lishiga qaramay, tili juda erta chiqdi. Buning sababi bor. Uning ota-onasi bor-yo‘g‘i bittagina gapni, ya’ni “to‘g‘ri” degan so‘znigina bilishar, buni o‘rganib olish uncha qiyin emasdi.

Ha, qo‘ylar o‘zlarini eng baxtli hayvon deb bilishadi. Chunki, ular ortiqcha gapirishdek kulfatdan nari yashaydilar. Ko‘p gapirish uchun ko‘p o‘ylash kerak. Ko‘p o‘yladingmi, hech qachon semirmaysan. Oriqlik esa – g‘irt sharmandalik. Dunyoga bir kelgan ekansan, lorsilloqligingni hammaga ko‘z-ko‘z qilib, seni to‘yga yetaklab borishmasa, shuyam hayotmi?

Bizning qo‘ng‘ir yungli Qo‘zichog‘imiz ham tug‘ilganidan buyon shu hikmatga amal qilib kun kechirardi. Oqsoqol kelishi munosabati bilan yaylovda boshlangan mashmashalarda u to‘liq ishtirok etib, bir-biriga qarama-qarshi gaplarni diqqat bilan tinglayotganiga qaramay, hamma to‘g‘ri so‘zlayotganiga ishonchi komil edi.

Uloqcha o‘zining fermadan jo‘natilgan oqsoqolligini to‘la-to‘kis isbotlab bo‘lgach, shu kungacha palapartishlik hukm surib kelgan yaylovda barcha to‘liq bo‘ysunishi lozim bo‘lgan tartib-intizomni joriy etish haqida taklif kiritdi. Bu taklifni birinchi bo‘lib o‘zi ma’qullab, yangicha turmush qonun-qoidalari yuzasidan so‘zlashga kirishganida, Qo‘zichoq zo‘r qiziqish bilan uning sholg‘omrang og‘ziga tikildi.

– Eng avvalo, har kim ko‘ngli tusagan joyda o‘tlashiga chek qo‘yamiz, – deya gapni juda nozik masaladan boshladi oqsoqol. – Siz, Ho‘kiz og‘a, bugundan e’tiboran soyning yoqasidagi o‘tlarni xo‘rdalaysiz. Qo‘zichoqqa do‘ngning orqasidagi kurmakzorni ajratamiz. Adirning etaklari – Bo‘taloqqa.

– Tupurdim adirning etagiga! – deb qat’iy norozilik bildirdi Bo‘taloq. – U tomonda yantoqdan bo‘lak hech vaqo yo‘q.

Qo‘zichoqning Bo‘taloqqa rahmi kelib, “to‘g‘ri” deb o‘ylab qo‘ydi ichida.

Boshliqlikni qo‘lga kiritib, ko‘ngli taskin topib turgan Uloqcha, pinagini buzmasdan, sokin javob qildi:

– Ota-buvang yantoq chaynab kelgan. Ajriq yeyishni senga kim qo‘yibdi?

Qo‘zichoqning nazdida oqsoqol ham to‘g‘ri gapirgandek tuyuldi.

– Xo‘sh, bu yerda kim o‘tlaydi? – yaylovning markazidagi barra maysalarga suqlanganicha so‘radi Bo‘taloq. – Bu yerni gapirmading-ku.

Uloqcha bir tomoq qirib olib, sipolik bilan chimrildi.

– Bu joylarning bir qismi menga, – gap otasidan qolgan meros haqida ketayotgandek, zarracha ikkilanmasdan so‘zladi u. – Ikkinchi qismida yordamchim Eshak… hm… Bilimdon tirikchilik qiladi.

Qandaydir bir kelgindi hammaning ko‘zini baqraytib turib, bemalol lo‘ttibozlik qilayotganidan Bo‘taloqning fig‘oni falakka chiqdi:

– Bu qanday gap, birodarlar? Mana shu yaylov azaldan bizniki. Tayinsiz bir echkivachcha bugun keliboq, eng sero‘t joylarni o‘zlashtirib olsa, jim qarab turaveramizmi?

– To‘g‘ri! – deb ma’radi Qo‘zichoq.

Bo‘taloqning jirrakiligiga ko‘nika boshlagan Uloqcha, bu gal ortiqcha qizishmasdan, baland ruhda po‘pisa qildi:

– Ho‘, beli do‘ngalak! Meni yana “echkivachcha” deydigan bo‘lsang, yaylovda bo‘rash huquqidan mahrum qilaman. Tartib-qoida nimaligini bilasanmi, o‘qimagan? Qoidaga ko‘ra, oqsoqol yaylovning markazida turishi kerak. Bu yerdagi o‘tlar bo‘liq bo‘lsa, menda nima ayb?

– Ha, ha, bu gapda jon bor, – deya bosh irg‘adi Eshak. – Boshliqlar markazda turishadi, deganlarini bir eshitganidim. Markaz deyilganda, biz yaylovning qoq o‘rtasini tushungaymiz.

– To‘g‘ri! – dedi Qo‘zichoq.

Ba’zida, ko‘p gapirish ham qorinni ochiradi. Oshqozoni jizillab, ichaklari shildirayotganini his etgan Uloqcha, tezroq tamaddilanish hozirligini ko‘rdi. Yordamchisiga toqatsizlangan kepatada yuzlanib, dabdabali ohangda murojaat qildi:

– Bilimdon!

Eshak qaddini g‘ozladi:

– Qulog‘im sizda, hukmdorim!

– Podani safga tizib, joy-joyiga tarqat.

– Xo‘p bo‘ladi, hukmdorim!

Eshak atrofidagi hayvonlarga quloq dikkaytib turib, tovushining boricha hangradi:

– Olti qator bo‘lib safla-a-n!

– Ie, kallang joyidami? – o‘shqirdi Bo‘taloq. – O‘zimiz bor-yo‘g‘i uchtamiz, qanaqasiga olti qator bo‘lib saflanamiz?

– Amaldorga aql o‘rgatilmasin! – deya ko‘zini chaqchaytirdi Eshak. – Birin-ketin safla-a-n!

Ho‘kiz og‘a, Bo‘taloq va Qo‘zichoq, istab-istamay, qatorga tizilishdi.

Eshak: “Mening orqamda-a-n hangu-u hang!” – deb baqirdi-da, joyida bir shattalab olib, oldinga yurdi. Qatordagilar pala-partish qadam tashlashib, nochor unga ergashdilar.

Mansabdor Eshak amali yo‘q hayvonlarni joy-joyiga tarqatib qaytganida, katta boshliq serajriq maydonga yonboshlab olib, qandaydir qo‘shiqni o‘zicha hirgoyilab yotgandi:

Shamol kelsa, ko‘k maysalar

Qiltil-qiltil-qiltillaydi.

Osmondagi oq bulutlar

Hilpil-hilpil-hilpillaydi.

Oftob chiqsa, sho‘x to‘rg‘aylar

Jilpil-jilpil-jilpillaydi.

Mening kumush qo‘ng‘irog‘im

Yiltil-yiltil-yiltillaydi…

“Qorinni allaqachon nog‘ora qilvolibdi, – yon-veridagi kemtik ajriqlarga ochko‘zlarcha qarab qo‘yib, ko‘nglidan o‘tkazdi Eshak. – Bu joylarda yordamchim ham ovqatlangay deb o‘ylamaganini qarang-ga”.

U, nafasini rostlab olish uchun Uloqchaning yoniga ag‘anayotib, hech narsa bo‘lmagandek, bamaylixotir gap boshladi:

– Nonushta qilib oldilarmi, hukmdorim? O‘tlog‘imizning maysalari hang-mang qoladigan darajada shirali. Tortinmagaylar.

– Shuyam maysa bo‘ptimi! – deya tuyog‘ini siltadi Uloqcha. – Eshitishimga qaraganda… Yo‘q… o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman! Olatog‘ning etagidagi maysalar chinordek-chinordek bo‘lib, tarvaqaylab yotibdi. Chaynasang, bodring g‘ajigandek yayraysan.

Bu gapni eshitib, Eshakning og‘zidan chak-chak so‘lak tomchiladi:

– Qarang-ga, qarang-ga!

– Sen nima deysan, Bilimdon, – yordamchisiga maslahat soldi oqsoqol. – O‘sha tomonga turizm qilsakmikin?

Eshak qorniga kelib qo‘ngan pashshani dumida ayamay urib, xo‘shshayganicha so‘radi:

– Kechirgaylar… Nima u… to‘rayzim degani?

– Sayohat-da, – izoh berdi Uloqcha. – Ham sayl qilamiz, ham maysaga to‘yamiz. Xo‘sh, nima deysan?

Do‘ng yonida o‘tlab yurib, amaldorlarning suhbatiga jimgina quloq solayotgan pismiq Qo‘zichoq dono oqsoqol g‘oyatda to‘g‘ri taklif kiritayotganini darhol fahmlab yetdi. So‘ng, Eshakning nima deyishini kutib, maysa chaynashdan to‘xtaldi.

– Eha-a, eha-a, – deya ko‘zini pildiratib, tog‘ tomonga xavotirli qarab qo‘ydi Eshak. – Birinchidan, Olatog‘ bu yerdan ancha uzoq. Oltinchidan, uyoqda Ashqal-Dashqal degan egizak bo‘rilar yashagay. Ikkalasiyam g‘irt bezori.

Bo‘rilarning o‘tkir-o‘tkir tishlarini ko‘z oldiga keltirgan Qo‘zichoq, Eshak bo‘lishiga qaramay, Bilimdon to‘g‘ri gapirayotganini his etdi. Ayni

chog‘da, bo‘rilar haqidagi vahimali gaplardan keyin ham oqsoqolning avzoyida hech qanday o‘zgarish sezilmagani uni taajjubga soldi.

– Seni qara-yu, – Eshakni mazaxladi Uloqcha. – Egizak suvaraklardan qo‘rqib yuribsanmi hali? Yaqinda men ularni tutvolib shunaqayam po‘stagini qoqdimki, oxiri kaltakka chidamasdan: “Jon aka, bizni qo‘yvoring. Yana sizga pashshalashadigan bo‘lsak, mayli, suyagimizni it g‘ajisin”, deb, rosa oh-voh qilishdi. Qarasam, ko‘zlari mo‘ltillab, ho‘ng-ho‘ng yig‘lab turishibdi. Rahmim kelib, ikkalasiniyam qo‘yvordim. O‘sha Ashqal bilan Dashqaling meni duo qilib, tuyoqlarimni yalashdi.

Bilimdonning ko‘zlari qinidan chiqqudek bo‘lib olaydi:

– Yopiray! Rostini aytsam, bu gapga eshak ham ishonmagay, hukmdorim.

– Ho‘, o‘qimagan! – birdan uni jerkib berdi Uloqcha. – Sen menga yordamchimisan, yo dushmanmisan?

– Yordamchiman! – o‘rnidan sakrab turib, qomatini g‘ozladi Eshak.

Uloqcha ham asta o‘rnidan turdi va Eshakka nigohini nayzadek qadab, ogohlantirdi:

– Yordamchi bo‘lsang, vazifangni halol bajargin! Boshliqning gapini yolg‘on deydigan yordamchi ishdan haydaladi. Tushundingmi?

– Tushunganda qandoq! Nima, kallam oshqovoqmidi?

Uloqcha Eshakka burnini bir jiyirib qo‘yib, yonga o‘grildi va oraliqdagi masofani o‘zicha chamalamoqchidek, ko‘zlarini xiyol qisgan kuyi, Olatog‘ tomonga uzoq tikilib qoldi.

– Gap shu! – dedi u tog‘ tomondan ko‘zini uzmay. – Kelasi hafta sayohatga jo‘naymiz. Bu dunyo o‘tkinchi, o‘lar jonga ko‘proq shataloq otib qolish kerak.

Hech nimani bilmagandek, beparvo kurmak chaynayotgan Qo‘zichoq, oqsoqolning oxirgi gapini eshitib, “to‘g‘ri” deb qo‘ydi o‘zicha.

Olatoqqa sayohat

Quyonning biron-bir jonivorga xuruj qilganini hali hech kim ko‘rmagan. Hatto, Olatog‘da o‘rmalagan jon borki, ularning barcha ikir-chikirlaridan xabardor bo‘lgan durbinko‘z Ukki ham bunday voqeani eslay olmaydi. Biroq, Quyonning payiga tushganlar shunchalik ko‘pki, ularni sanab chiqish uchun qo‘l va oyoqlarimizdagi barmoqlar ozlik qiladi: bo‘ri, tulki, qoplon, burgut, silovsin, lochin, qashqir… Bular yetmaganidek, bir qarashda og‘ziga kattaroq qo‘ng‘iz sig‘maydigandek ko‘rinuvchi bo‘g‘ma ilonlar ham quyon go‘shti kalamushnikidan totliroq ekanini farqlay bilishadi.

Ota-onasining uyidan ko‘chib ketishga majbur bo‘lib, bor-yo‘g‘i yarim yildan buyon mustaqil hayot kechirishga o‘tgan Dingirvoy boshqa quyonlar kabi har kuni u yoki bu raqibining ta’qibiga uchrar edi. Bunday paytlarda sportning uzoq masofaga yugurish turi bilan murg‘aklikdanoq muntazam shug‘ullanib kelgani asqotib qolardi.

Ertalab nayzatirnoq bo‘rilar changalidan zo‘rg‘a qochib qutulgan kulrang Quyonning yuragidagi titroq bosilib ulgurmasidan, u yashirinib yotgan inning ustida pala-partish qadam tovushlari eshitildi. U “tapira-tupir”larga cho‘chib-cho‘chib quloq solib turgach, tepadan o‘tayotganlar qandaydir notanish hayvonlar ekanini sezib, hayrati oshdi.

Qadam tovushlari uzoqlashganidan so‘ng, Quyon qorong‘i inidan astagina chiqib, quyoshdan yoshlangan ko‘zlarini bir-ikki ishqalab qo‘ydi-da, diqqat bilan tevarakka alangladi. Butalar ortida shubha tug‘diradigan hech qanday sharpa sezilmadi. U, yuragi po‘killaganicha, begona hayvonlarning izidan biqinib borarkan, ko‘p o‘tmay, nordon sho‘ralarni kirtillatib chaynayotgan Eshakni uchratdi. Eshakdan nariroqda esa jikkak bir Uloq bo‘ynidagi qo‘ng‘iroqchasini jingillatgan asno toshdan-toshga sakrab o‘ynar, chamasi, bu uning eng sevimli mashg‘uloti edi.

“Nazarimda, hayvonlar ko‘proqqa o‘xshab tuyulganidi, – deb o‘yladi Quyon. – Qolganlari qayoqda bo‘lsaykin?”

Quyon atrofga jalang-julang boqayotganida, To‘qmoqtosh deb ataluvchi kattakon qoya ortidagi maydon tomonda qandaydir hayvonning kuylayotgani quloqqa chalindi.

Chiroylidir sahrolar,

Sahrolarda o‘rkach bor.

Chiroylidir daryolar,

Daryolarda o‘rkach bor.

Chiroylimish tog‘lar ham,

O‘rkachlarin ko‘raylik.

Ammo mening o‘rkachim

Hammasidan chiroylik.

Bo‘-bo‘-bo‘, bo‘-bo‘-bo‘,

Bo‘-bo‘, bo‘-bo‘, bo‘-bo‘-bo‘...

Quyon o‘sha yoqqa qarab yurdi. To‘qmoqtoshni aylanib o‘tib, to‘q qoringa ashula aytib yurgan Bo‘taloqqa duch keldi. Tuyalar yirtqichlarning toifasiga kirmasligini bilsa-da, har ehtimolga qarshi o‘zini panaga oldi. Bo‘taloq uni ko‘rmasdan, yaqinidan o‘tib ketdi va qoyaning salqinida hordiq chiqarib yotgan Ho‘kiz bilan Qo‘zichoqqa yaqinlashdi.

– Tfu! Shuyam sayohat bo‘ldimi? – sheriklarining yoniga cho‘k tushib, g‘udrandi u. – Uyoq-buyoqqa qarasang, hammayoq go‘zal! Qadam bosaman desang, hammayoq tikon!

Qo‘zichoq toshlarga qoqinaverib shilinib ketgan tuyoqlariga yig‘lamsirab boqarkan, “To‘g‘ri!” – deb ming‘irladi.

Podadagi eng qari hayvon, hayotda eng ko‘p qiyinchilik ko‘rgan Ho‘kiz og‘a o‘tkir til boshga balo keltirishini o‘zgalardan tuzukroq tushunardi. Shu bois, Bo‘taloqning haqligini bila turib, uni sabr-toqatli bo‘lishga, murosasozlikka undadi:

– Tilingni kaltaroq qilsang, yaxshi bo‘lardi, Bo‘taloqjon. Yuqoridan jo‘natilgan xo‘jayinlarni tanqid qilaverishning xosiyati yo‘q.

– To‘g‘ri! – deya Ho‘kiz og‘aning gapini ma’qulladi Qo‘zichoq.

Bo‘taloq baribir tajanglanishini qo‘ymadi:

– O‘sha echkivachchani sizga o‘xshaganlar haddidan oshiradi, Ho‘kiz og‘a! O‘zimga qolsa-ku, uni betiga bir tupurib…

Bo‘taloq so‘zini oxiriga yetkizolmadi. Sho‘ra kavshayverib, lablari ko‘karib ketgan Eshak qoya ortidan chiqib keliboq, unga o‘shqirdi:

– Ho‘, bukri! Bu qanaqa majlisbozlik? Gapirishni senga kim qo‘yibdi… biz turganda?

– Kim bo‘pketibsan? – og‘zidan tuprik sachratib bobilladi Bo‘taloq. – Bilvol, yuzta amaling bo‘lgandayam, baribir eshaksan!

– I! I! I! – o‘zini Bo‘taloqning fahmsizligidan hayron bo‘lganga soldi Eshak. – Menga bo‘yin cho‘zishga qanday hadding sig‘di, amali yo‘q?

Ortiqcha g‘alvani yoqtirmaydigan, har qanday janjalning oldini olishga urinadigan Ho‘kiz og‘a bu gal ham Eshakni chalg‘itishga tirishdi:

– Hoy, Bilimdon! Iltimos qilaman, menga bir narsani tushuntirib qo‘ygin. Bu sayohatdan maqsad nima o‘zi?

Bu gapdan so‘ng Eshakning tuyqus dimog‘i ko‘tarilib, donishmandlardek havolanib suzildi.

– Mayli, Ho‘kiz og‘a, aqlingiz yetadigan qilib, buni sizga soddagina tushuntirib bergaymiz, – dedi u. – Bu dunyo o‘tkinchidur. Sayohatdan maqsad – o‘ladigan jonga bir shataloq otib qolish. Buni to‘rayzim deydilar!

Hanuz panada turgan Quyon, bu gapni eshitib, o‘zini kulgidan tiyolmadi, buta ortidan irg‘ishlab-irg‘ishlab qiqirlaganicha chiqib kelib, Eshakka tanbeh berdi:

– Xi-xi-xi, xi-xi-xi… “To‘rayzim” emas, “turizm”… Turizm! Xi-xi-xi…

Hamma tengdan Quyon tomonga o‘grildi. Quyon qorin quchib kulishda davom etardi. Xudo dumdan qisgan bir chalamaxluqqa ermak bo‘layotgani Eshakka alam qildi.

– Yo‘qol ko‘zimdan! – deya Quyonga ko‘zini olaytdi u. – Bir tepsam, Amerikaga borib tushgaysan!

Quyon jikillab iljaydi:

– Hay-hay-hay, ikkalamiz janjallashsak uyat bo‘ladi-ya, qarindosh. Qara, sen ham shalpangquloqsan, men ham. Xi-xi-xi…

Atrofdagi hayvonlarning birdan kulib yuborishgani Eshakni battardan achchig‘lantirdi.

– Kim bilan gaplashayotganingni bilasanmi, xarip? Yaylov oqsoqolining yordamchisidurman! Qo‘limda o‘zimga yarasha huquqlarim bor! Esing bo‘lsa, boshingga ofat yog‘ilmasidan jo‘nab qolgaysan. Uqdingmi, g‘ilay?

– Birinchidan, meni otim “g‘ilay”mas, Dingirvoy, – do‘qlarga parvo qilmay, xotirjam so‘z qotdi Quyon. – Ikkinchidan, meni haydasang, o‘zingga yomon bo‘ladi. Men sizlarga yaxshilik qilmoqchi bo‘lib keldim.

Eshak: “Qarang-ga, qarang-ga, shu jinqarcha bizga yaxshilik qilarmish”, deya kulishni boshlagan edi, Ho‘kiz og‘a: “Mayli, gapini eshitaylik-chi”, deb, Quyonga savol nazari bilan ko‘z qadadi. Quyon shu atrofda egizak bo‘rilar izg‘ib yurishgani, ertalab ularning panjasidan zo‘rg‘a qochib qutulgani haqida gapirib, podadagilarni xavf-xatardan ogohlantirib qo‘ymoqchi ekanligini aytdi. Shunda Eshak: “Egizak deganlaring Ashqal-Dashqallar bo‘lmasin tag‘in?” – deb so‘ragan edi, Quyon: “Bilarkansan-ku, xuddi o‘shalar!” – deya tasdiqladi.

– He atta-a-ng, – bosh chayqab, afsuslandi Ho‘kiz og‘a. – Hozir Olapar yonimizda bo‘lganida, bo‘rilardan bunaqa qo‘rqib o‘tirmagan bo‘lardik.

– Kim u Olapar deganingiz? – nahotki xonaki hayvonlar ichida ham bo‘ridan zo‘rrog‘i bo‘lsa, degandek taajjublanib savol berdi Quyon.

Ho‘kiz og‘a Olaparning Chimtepa deb atalmish qishloqdagi eng aqlli, eng dovyurak it ekanligini, boshqa ovullardagi ko‘ppaklar uning ovozini

uzoqdan eshitgandayoq, qo‘rqqanlaridan og‘zidagi suyakni apil-tapil tuproqqa yashira boshlashlarini ta’riflab kelib, yaylovda oqsoqol paydo bo‘lganidan keyin u ta’qibga uchraganini, hammadan arazlab qolganini afsus bilan ma’lum qildi.

Shu mahal qo‘ng‘iroqning “jingir-jingir”i eshitildi. Toshdan-toshga sakrayverib terga botib ketgan Uloqcha qoyaning yonidan dikillab chiqib keldi, podadagilarning nimadandir bezillab turishganini payqab, Eshakka yuzlandi:

– Nima gap, Bilimdon?

– Ashqal-Dashqallar shu atrofda izg‘ib yurishganmish, hukmdorim.

– Kim aytdi?

– Anavi g‘ilaydan eshitdik.

Uloqcha mensimagan qiyofada Quyonga boshdan-oyoq nazar solib chiqdi.

– Shu ig‘vogarga ishondilaringmi? – deb o‘pkalandi u. – Karam o‘g‘risi-ku bu!

– O‘zing karam o‘g‘risi! – tilini chiqarib, Uloqchani masxaraladi Quyon. – Hovliqma! Agar bo‘rilar kepqolsa, birinchi bo‘lib o‘zing poyga qo‘yasan.

– Men-a? – tuyog‘ini ko‘ksiga tirab g‘o‘daydi Uloqcha. – Bir bog‘ xashakdan garov o‘ynashim mumkinki, Ashqal-Dashqallaring meni ko‘rdi deguncha, sichqonning uyini ijaraga olishadi. Yaqinda ularni tutvolib, shunaqayam savalaganmanki…

– Savash ham gapmi, – deya laganbardorlik bilan ilova qildi Eshak, – dabdalasini chiqarganman desangiz-chi, hukmdorim.

– Keyin koʻzlaridan bir hovuz yosh toʻkishib, sizga boshqa ilashmaymiz deb qasam ichishdi, – loflashda davom etdi Uloqcha.

– Tuyogʻingizni yalashganini gapirmadingiz-ku, hukmdorim, – deb yaltogʻlandi Eshak. – Kamtarinlik qilmagaysiz endi.

Uloqcha bu gapni joyida ilib ketdi:

– Ha, tuyoqlarimni “chilip-chilip, chilip-chilip, chilip-chilip” qilib yalashayotganda, birdan koʻnglim boʻshashdi. Rahmim kelib, ularni qoʻyvordim.

– Qoʻyvorib chakki qilganakansiz, hukmdorim, – tilyogʻlamalikni avj oldirdi Eshak. – Mana, ular yana bezorilik qilib yurishganmish.

– Sen haqsan, – dedi Uloqcha. – Endi ushlavolsam, tomoqlaridan atalayam oʻtmaydigan qip tashlayman!

Uloqchaning soʻzlarini eshitib, Quyon qotib-qotib kuldi.

– Voy maqtanchogʻ-ey, voy chiranchogʻ-ey! – deya xandon otdi u. – Umrim bino boʻlib, sendaqa opqochadiganni birinchi koʻrishim. Xi-xi-xi, xi-xi-xi…

Tagʻin birpas qoʻyib bersa, bu Quyon obroʻyini ikki pul qilishidan choʻchigan Uloqcha Eshakka oʻgirilib, oʻqraydi:

– Hoʻ, Bilimdon! Menga yordamchimisan, dushmanmisan?

– Yordamchiman, hukmdorim!

– Unda nimaga anqayib turibsan, oʻqimagan? Koʻrmayapsanmi, qandaydir ogʻzi bor narsa boshligʻingni ayamay mazax qilyapti.

Eshak: “Xato bizdan oʻtdi va uni tuzatgaymiz”, dedi-yu, odatdagidek koʻzini gʻildiratib, Quyonga yaqinroq bordi:

– Yaylov oqsoqoli mayna bo‘ptimi senga! Bilasanmi, hozir seni nimalar qilgayman?

Eshak raqibiga qo‘qqisdan ketini o‘girib, jon-jahdi bilan shattalashga tushganida, Quyon tepkilarga zo‘rg‘a chap berib, o‘zini butalarning orasiga urdi. Keyin nariroqdagi burganlar ortidan bo‘y ko‘rsatib: “Kallavaramlar! Yaxshilikni bilmasalaring, o‘zlaringdan ko‘ringlar!” – deb qichqirdi-yu, zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Ashqal bilan Dashqal

Egizak bo‘rilar ochlikdan sulayganlarida ham, to‘qlikdan g‘o‘dayganlarida ham ko‘hna Toshqo‘rg‘on darvozasi yonida yotishga odatlanishgandi. Ular hozir ham shu yerdagi maymanchaklar soyasiga cho‘zilishib, o‘likday uxlab yotishardi.

Ashqalning tushida zaharli ilonlar uni to‘rt tomondan o‘rab kelaverdi. Qochib qutulishning iloji yo‘q edi. Joni shirinlik qilib: “Aylanib ketay, oshnajonlar, o‘rgilib ketay, oshnajonlar, istasalaring, sizlarga ka-a-tta to‘ng‘izni ushlab beray. Meni o‘ldirmanglar”, deb yalinishga tushdi. Ilonlar yo uning tiliga tushunishmadi, yo bo‘lmasa, nasiyadan naqdini ma’qul ko‘rishdi-yu, birin-ketin ustiga sapchishdi…

Ashqal g‘ingshib tipirchilaganicha, seskanib uyg‘ondi.

– Padariga la’nat bunaqa hayotning! – kayfiyatsizlanib g‘udrandi u. – Na o‘ngingda halovat bor, na tushingda.

Ochlikdan puchmoqlashgan qornini osmonga qilib uxlayotgan Dashqalning “xir-r, xir-r” nafas olayotgani Ashqalning battardan g‘ashini keltirdi, “E, tur-e!” deb, ukasining biqiniga tepdi. Dashqal shaytonlagudek bo‘lib ko‘zini ochdi.

– Indamasa, yotaverarkansan-da! – do‘q urdi Ashqal. – Bor, sichqon-pichqon bo‘lsayam ushlab kel!

Akasining haddan ziyod qonsirab turganini sezgan Dashqal tezda qaddini ko‘tarib, gapni ko‘paytirmasdan, asta joyidan siljidi. “Ortiqcha jig‘iga tegsang, bunaqa vaqtda ukam deb o‘tirmay, o‘zimniyam yeb qo‘yadi bu maraz”, deb o‘yladi u. So‘ng, yo‘l-yo‘lakay kavak-kandiklarni iskagan kuyi sichqon oviga jo‘nadi.

Kelib-kelib, tug‘ilgan kunida och yotish Ashqalga juda og‘ir botayotgan edi. Eng yomoni shuki, birorta nafsing qurg‘ur uni tabriklagani kepqolsa, nima bo‘ladi? Mehmonning oldiga chumolini qo‘yadimi?

“Hech bo‘lmasa, ertalabki Quyonni tutganimdayam, xumorbostiga yarab qolardi, – so‘lak yutib o‘yladi u. – Hamma ayb Dashqalda. Shu befarosat aralashgan ish borki, chappasiga ketadi”.

Changalzorda ivirsib yurgan Quyonni ko‘rgan zahotiyoq, uning ini o‘sha atrofda ekanini Ashqal darhol fahmlab yetgandi. Shuni e’tiborga olib, o‘ljaning To‘qmoqtosh yonidagi yalanglikka chiqishini kutish kerak, degan qarorga keldi. Yalanglikning ikki tomoni baland qoyalardan iborat bo‘lib, Quyonni bu yerda osongina iskanjaga olish mumkin edi. Dashqalning esa kutishga sabri chidamadi, “Gap ayiq-payiqni bo‘g‘izlash haqida ketayotgan bo‘lsa, boshqa masala. Xashaki Quyonni ushlashgayam kallani ishlatib o‘tiramizmi”, dedi-yu, nafsi hakillab, oldinga tashlandi. Natijada, to‘lpoqqina Quyonni qo‘ldan chiqarishdi.

Ashqal uzoqni o‘ylab ish qiladigan tullak bo‘rilardan edi. Dashqal bo‘lsa, burnidan narini ko‘rmasdi, akasining “Ertaga qilinadigan bayram uchun bugungi mayda maishatdan kechish kerak”, degan falsafasini sariq chaqagayam olmasdi. Uning o‘z shiori bor edi: “Ko‘rdingmi – quvla, tutdingmi – g‘aji!”

Ashqalboʻri laqma va pandavaqi jonivorlardan qanchasini tuzogʻiga osongina aldab ilintirgani, uning hiyla-nayranglari koʻpgina boʻrilar uchun darslik boʻlib qolgani haqida oʻylab, oʻzining ustamonligidan faxrlanib yotarkan, Shirmonqirda yuz bergan bir voqea tuyqus yodiga tushdi.

Navroʻz kirib, maysalar endigina shira yigʻa boshlagan chogʻlar edi. Egizak boʻrilar Shirmonqir yaylovida oʻtlab yurgan podadan is olib, oʻsha atrofda kechgacha izgʻishdi. Qoʻy-echkilarning tevaragida boʻribosar itlar akillab yurgani bois, podaga yaqinroq borishga yuraklari dov bermadi.

Oxiri, bu yerdan biron naf chiqishiga koʻzi yetmagan egizaklar loaqal yumron yoki boʻrsiqni “tuxumyutdi” qilib olish maqsadida jarning yoqasiga kelishdi-yu, pastdagi buloqda ketvorgan bir Uloqchaning suv ichib turganini koʻrib, quvonchdan tillari osildi.

– Manavini omad desa boʻladi, – deya ketini likillatdi Dashqal. – Qani, bosdik echkibolani!

Ashqalning koʻpdan beri miyasida pishitib yurgan bir rejasi bor edi. Bu rejasi amalga oshgan taqdirda, u hali biron-bir boʻri galasiga nasib etmagan katta goʻshtxoʻrlik bazmini uyushtirgan, ayni paytda, aql-u farosati beqiyosligini barchaga koʻz-koʻzlab, manaman degan yirtqichlarniyam angraytirib qoʻygan boʻlardi. Itlarning koʻzini shamgʻalat qilib, podadan ajralib chiqishga jurʼat topgan oʻzboshimcha Uloqning oʻta qaysar va takabburligi bir qarashdayoq koʻzga yaqqol tashlanib turar, Ashqal oʻylab qoʻygan razil ishni aynan shunga oʻxshagan tarbiyasiz maxluqlargina amalga oshira olardi.

Akasi yana qandaydir chalkash ish boshlamoqchi ekanini eshitib, Dashqalning yuragi siqildi.

– Bu ishni boshqa safar qilarmiz, – Uloqdan koʻz uzmay yalanar ekan, panjasini siltadi u. – Hozir bunaqa narsani gapirmay turgin, judayam ochman.

U, haddan ziyod ochligini isbotlamoqchidek, oldiga kelib qo‘ngan chigirtkani bir urishda chalajon holatga keltirdi-da, yamlamasdan yutdi.

Ammo, Ashqal o‘z so‘zida qattiq turib oldi. Oxiri ukasini yon berishga majbur qilgach, ikkalasi maslahatni bir joyga qo‘yib, sekingina pastga tushib bordilar.

Bo‘rilarni ko‘rib, avvaliga Uloqchaning yuzi bo‘zarib ketdi. Egizaklar muloyim jilmayib turib, quyuq salom berishganidan keyin ham uning oyog‘idagi qaltirog‘i bosilmadi. Bo‘rilar yuksak madaniyat bilan bo‘yin cho‘zishib, o‘zlarini tanishtirishdi.

– Kaminani janob Ashqal deydilar.

– Janob Dashqalni ko‘rib turibsiz. Xex-xex-xe…

Uloqcha qaltirayotgan tuyog‘ini ularning panjasiga bir-bir bosib: “Me… men… Uloqman”, dedi.

– O‘-o‘, Uloqvoy deganlari sizmisiz? – hayratomuz tikildi Ashqal. – Ta’rifingizni biz ko‘-o‘-p eshitganmiz.

– Mana, nihoyat o‘zingizniyam ko‘rdik, – deb so‘z qistirdi Dashqal.

Bu maqtovlardan so‘ng Uloqchaning ko‘zidagi sarosima birdan g‘oyib bo‘lib, burni o‘z-o‘zidan yuqoriga ko‘tarildi.

– Qarab turi-i-b, sizga nihoyatda havasim kelyapti, Uloqvoy, – deya xushomadni ko‘pirtirdi Ashqal. – Ko‘zingizdan aql yog‘ilyapti-ya, aql!

– Qomatiga qarab, ko‘zim kuyib ketyapti, – dedi Dashqal. – Pahlavonlikni qarang, pahlavonlikni!

Uloqcha o‘zini iymangandek ko‘rsatishga urindi:

– Yo‘g‘-e… Jindaygina oshirib maqtayapsizlar…

– Kamtarinlik qilmasinlar, – nihoyat ishqov berishga tutindi Ashqal. – Kamtarinlik boshga bitgan balo. O‘rningizda boshqa uloq bo‘lganida, shuncha kuch, shuncha es bilan podaning changiga belanib yurmagan bo‘lardi.

Dashqal afsuslangan bo‘ldi:

– Sizdek donolar changga belanib yuribdi-yu, qandaydir kallavaram Serka podaga oqsoqollik qilyapti. Chunki, uning bo‘ynida kumush qo‘ng‘irog‘i bor.

– U muttahamdan qo‘ng‘iroqni olish kerak, Uloqvoy, – shartta asosiy masalaga o‘tdi Ashqal.

Amalparast Uloqcha vahshiylarning orasida turganini tugal unutib, “Berib bo‘pti!” deya alamzadalik bilan labini burishtirdi.

– Siz haqsiz, Echkibola, – dedi Dashqal. – Yaxshilikcha bermaydi u.

Ashqal darhol yo‘riq ko‘rsatdi:

– Yaxshilikcha bermadimi, qo‘ng‘iroqni shippa o‘g‘irlash lozim, Uloqvoy.

Uloqcha qo‘ng‘iroqni o‘g‘irlashdan foyda yo‘qligi, “Babachoq” fermasidagi savodsiz va laqma hayvonlar uning zo‘rligini baribir tan olmay turvolishlarini, oqibatda Nayzashoxning qahriga uchrab, ma’rash huquqidan bir umrga mahrum bo‘lishi mumkinligini aytgan edi, Ashqal unga yo‘l ko‘rsatishga tushdi:

– Qo‘ng‘iroqni o‘g‘irlaboq, fermadan qochasiz, to‘g‘ri kunchiqarga qarab yurasiz. Yo‘lda Chimtepa degan qishloqning yaylovi uchraydi. Qo‘ng‘iroqni pesh qilib, yaylovdagi hayvonlarga oqsoqol bo‘lvolasiz.

– Keyin madaniyatli boshliq ekanligingizni ko‘rsatib qo‘yish uchun Olatoqqa turistik sayohat uyushtirasiz. Buni turizm deydilar.

– Zarur bo‘pqolsa, polvonligingiz haqida mishmish tarqatib, “men borakanman, Ashqal-Dashqal degan bo‘rilardan xavotir olmanglar”, deb ko‘ngillarini tinchiting. Ularni moldek savalaganman desangiz ham mayli, Uloqvoy.

Nodon Uloqcha haqiqatan ham shu ishni qilgandek havolanib turib: “Aytganim bilan, qishloqilar bu gapimga ishonisharmikin”, deya hadiksiragan edi, Ashqal: “Unaqa bo‘lsa, zo‘rligingizni amalda ko‘rsatib qo‘yaqolasiz-da”, deb dalda berdi.

– Mana, bir-birimizga yoqib qolib, do‘st bo‘lvoldik, – dedi u. – Endi sizning hamma cho‘chib turadigan oqsoqol bo‘lishingizga yordam bermasak uyat-da.

– Toqqa borganlaringda, biz tasodifan duch kelgandek bo‘lamiz, do‘q uramiz, yemoqchi bo‘lamiz, – deya irshaydi Dashqal. – Shunda siz bizni to‘satdan do‘pposlashni boshlaysiz. Qarabsizki, olam sizga qoyil bo‘pturibdi-da! Xex-xex-xe…

Shundan so‘ng Ashqal Chimtepa etagidagi so‘qmoq to‘g‘ri Olatoqqa olib borishligi, tog‘ning boshlanishidagi To‘qmoqtoshdan tushlikka qarab yurilsa, Toshqo‘rg‘on degan eski qal’a uchrashligi, bo‘rilar yolg‘ondakamdan kaltak yeyish uchun ularni o‘sha yerda kutib olishligini uqtirishga kirishdi…

Ashqal hozir shular haqda xayol surib yotarkan, agar rejasi amalga oshmay qolsa, maynavoz Dashqalga bir umr masxara bo‘lib yurishini o‘ylab, ichida ijirg‘anib qo‘ydi. Buni boshqalar ham eshitgudek bo‘lsa, battardan izza bo‘ladi.

Shu mahal so‘qmoq tarafdan toshchalarning shildiragani quloqqa chalindi. Ashqal zog‘lanib boshini ko‘tardi va nimadandir yashirinayotgandek, ortiga o‘grila-o‘grila, Toshqo‘rg‘onga yaqinlashayotgan Dashqalni ko‘rdi. U biqinganicha akasining yoniga kelib, uni xushchaqchaq kayfiyatda turtkiladi:

– Farosatingga ofarin, Ashqal! Aqlingga besh ketdim!

– Hovliqmasdan gapir-e! – ukasiga koʻz chaqnatdi, ochlikdan zardasi qaynab turgan Ashqal. – Bir-ikkita qoʻngʻiz yedingmi deyman?

– Echkibolani koʻrdim, – Dashqal suyuqlanib, akasining boʻynidan quchdi. – Xuddi aytganingdek boʻldi-ya! Olim boʻpket-e!

Ashqal bu safar ukasini turtkilamay, koʻziga umidvor tikildi:

– Aldamayapsanmi? Naq dumingni yulvolaman-a!

– Aldayotgan boʻlsam, burnimga puchak chiqsin! – qasam ichdi Dashqal. – Oʻsha oʻzimizning laqma Echkibola kelyapti. Ketida sheriklariyam bor.

– Sheriklariyam bor? – ogʻzi qulogʻiga yetgudek suyunib soʻradi Ashqal. – Qani, birvoshdan sanavor-chi.

Dashqal tamshana-tamshana, xuddi she’r oʻqiyotgandek ohangdor qilib sanashga tushdi:

– Eng oldinda kelyapti Echkibola likonglab.

– Oh, oh, oh! – tumshugʻini yuqori koʻtarib, mayingina uvladi Ashqal.

– Echkimizning ketida – goʻlaygan bir Eshakvoy.

– Tfu! – hafsalasi pir boʻlib, chetga tufladi Ashqal. – Qayoqdan qoʻshilibdi u sassiq?

Dashqal bunga parvo qilmay, sanashda davom etdi: “Eshakvoyning ketida – lorsillagan Hoʻkizjon”. Ashqalning qaytadan bahri ochildi:

– Vay, vay, vay!

– Ho‘kizjonning ketida – to‘lpoqqina Bo‘taloq.

– Hay, hay, hay!

– Bo‘taloqning ketida – barragina Qo‘zichoq.

– Voy joningdan-ey! – deb gijingladi Ashqal. – G‘ajib-g‘ajib qo‘ysang!

“Xayriyat, qovoqbosh Dashqalning oldida yuzim shuvit bo‘lmadi, – deya sevinib o‘yladi Ashqal. – Mana endi dovrug‘im butun bir Olatoqqa yoyiladigan bo‘ldi. Bunday ishbilgichlikni eshitganda, hatto ayyor tulkilarning ham og‘zi lang ochilib qolishi turgan gap”.

Dashqal ilondek sudralib borib, qiyalikdagi harsang ortida biqinib turganicha, dara tarafga mo‘raladi.

– Ular to‘g‘ri qo‘rg‘onimizga kelishyapti, – akasiga o‘girilib, mamnun tirjaydi u. – Echkibola bizni rostdanam do‘pposlamoqchi shekilli? Xex-xex-xe…

Ashqal ham askiyaga qo‘shildi:

– Biqinni ehtiyot qil, biqinni! Vax-xax-xa…

Egizaklar ko‘hna Toshqo‘rg‘onning darvozasini kattaroq ochib qo‘yishib, o‘zlari maymanchakning ortiga berkinishdi. Picha vaqt o‘tgach, so‘qmoq tomonda yana toshchalarning shildiragani eshitildi.

Tuzoq

Dashqal ilgarilari akasi haqida yaxshi fikrda emas edi. Uni o‘zicha “xudo qarg‘agan xayolparast” deb atardi. Bugungi voqeadan keyin esa akasining o‘nta bo‘ri to‘dasiga ham boshchilik qilsa arziydigan

donishmandligini anglab yetdi. Ammo, shu damgacha uni har qadamda ermak qilib kelganidan xijolat ham tortmadi, kechirim ham so‘ramadi.

So‘qmoqdagi toshchalarning “shildir-shildir”i kuchayib, qiyalikdagi harsang yonida Uloqcha boshchiligidagi poda paydo bo‘ldi. Oqsoqolning ortidagi Eshak boshqa hayvonlarni ergashtirgan asno quvnoq bir ashulani maroq bilan kuylab kelayotgandi.

Qari Eshshak toqqa ketdi,

Quyosh chiqqan yoqqa ketdi,

Hang, hang!

Hang, hang!

Mag‘rur tutib borar boshni,

Ushlab kelay deb quyoshni,

Hang, hang!

Hang, hang!

Borgan chog‘i Olaytoqqa,

Quyosh qochdi bo‘lak yoqqa,

Hang, hang!

Hang, hang!

Eshshak sho‘rlik quruq qaytdi…

Tanishlarga salom aytdi:

“Hang!”

Eshak Toshqo‘rg‘on darvozasi yaqinida qo‘shiqni tugatib, oqsoqolga qo‘shilib taqqa to‘xtadi. Podadagilar eski qal’ani qiziqib tomosha qila boshladilar.

– Siz ko‘rib turgan bu qo‘rg‘on bundan yuzlab yil ilgari qurilgan, – deya sheriklariga tushuntirishga kirishdi Uloqcha. – U zamonlarda hozirgidek shinam molxonalar bo‘lmagan. Sizlarga o‘xshagan oddiy hayvonlarni shunaqa tomi yo‘q binolarga qamab, qordayam, yomg‘irdayam g‘ing demay yashashga majbur qilishardi.

– Qoloqlikni qarang-ga! – deb hangradi Eshak.

– Ota-bobolarimiz qanday og‘ir kun kechirganini ichkariga kirganda yanayam aniq tasavvur qilamiz, – deb ma’ruzasini tugatdi Uloqcha.

Ko‘ngli nimadandir bezillay boshlagan Ho‘kiz og‘a oyog‘ini yerga mahkam tirab turib, oqsoqolga murojaat qildi:

– Menga qaragin, uka, bunaqa joyni tashqaridan tomosha qilib qo‘yaverganimiz yaxshimi deyman-da. Balki, Ashqal-Dashqallar ichkarida poylab yotishgandir.

– To‘g‘ri! – dedi Qo‘zichoq.

– Bu qo‘rg‘on mengayam bo‘rilarning tuzog‘iga o‘xshab ko‘rinyapti, – deb tixirlandi Bo‘taloq.

Uloqcha yana chiranishni boshladi:

– Qo‘rqmanglar degandim-ku sizlarga. O‘sha isqirt egizaklar meni ko‘rdi deguncha, toshbaqani kira qilib qochishadi.

– To‘g‘ri! – bu gapni ham ma’qulladi Qo‘zichoq.

Uloqcha g‘olibona qiyofada Eshakka yuzlandi:

– Bilimdon! Podani qo‘rg‘onga boshla!

– Xo‘p bo‘ladi, hukmdorim, – qaddini rostladi Eshak. So‘ng, podaga qarab, tantanavor hangradi. – Safla-a-n! Mening orqamda-a-n hangu-u hang!

Poda o‘z qal’asiga qaytayotgan lashkardek qatorlashib, ichkariga kirib ketdi. Kirib, qo‘rg‘on o‘rtasida to‘xtalishdi va ustki qismining uyer-buyeri nuragan tosh devorlarni, qor-yomg‘irlardan chirib ketgan yog‘ochlar qoldig‘ini ko‘zdan kechirgan bo‘lishdi. Egizak bo‘rilar darvoza yonida ularni tirjaygan holda picha kuzatib turishgach, Ashqal birdan qahqah urib kulishga tushdi:

– Sayohatga chiqibsizlar-da, a, kallavaramlar? Vax-xax-xa…

– Endi biryo‘la narigi dunyoga sayil qilasizlar. Xex-xex-xe…

Ashqalning qahqahasini eshitiboq, baravariga shattalab ortga o‘grilgan hayvonlar, dong qotgan holda joylarida turib qolishdi. Uloqcha ham avvaliga beixtiyor qo‘rqib ketdi-yu, keyin bu bo‘rilarning Shirmonqirda bergan va’dalari yodiga tushib, tezda o‘zini o‘ngladi.

– Meni tanimayapsizlar shekilli? – deya gerdayib dag‘dag‘a qildi u. – Po‘staklaringni qoqqanim darrov eslaringdan chiqibdi-da?

Dashqal ahmoqlarni kalaka qilish-u, o‘zidan ojizlarni mazaxlashni juda yoqtirardi. Qulay fursat kelganida, yana xumorini yozib olishga tirishib, yolg‘ondakamdan shumshaydi:

– Ie, bu pahlavon Echkibola-ku! Tanimaganimizni qarang!

– Ha, kallam qursin, – peshanasiga shapillatib urib, go‘yo qo‘rqayotgandek, orqaga tisarildi Ashqal. – Men ham tanimabman. Biz omilarni kechirasiz-da endi, Uloqvoy.

“Xayriyat, gapida turadigan bo‘rilar ekan, – deb o‘yladi Uloqcha. – Mana endi xomaki musht-mushtni boshlaymiz”.

U o‘zini dadil tutib, Dashqalga o‘qraydi:

– Qo‘yvoring, akajon, deb elanganing esingdami?

– Esimda, Echkibola, esimda.

– Sen tuyog‘imni yalaganiding shekilli? – bu gal Ashqalga davara qildi Uloqcha.

– To‘g‘ri, Uloqvoy, rosayam yalaganman.

– Unda, nimaychun yana jig‘imga tegyapsanlar? Hozir ikkalangniyam biqiningdan darcha ochaman!

Uloqcha “tashvishlanmanglar, qattiq suzmayman”, degan ma’noda bo‘rilarga yashirincha ko‘z qisdi. So‘ng kalla qo‘ymoqchi bo‘lib oldinga sapchigan edi, Dashqal chaqqonlik bilan uning yelkasidan tishlab oldi-da, boshi ustida bir-ikki aylantirib turib, zarb bilan chetga uloqtirdi. Maqtanchoq oqsoqol havoda koptokdek uchib borib, gursillaganicha Ho‘kiz og‘aning oyoqlari ostiga tushdi.

– Tuyoq yalashni ko‘rsatib qo‘yamiz senga! – vahshiyona irilladi Dashqal. – He, itkana!

Ashqalning ham avzoyi yovuzlashdi:

– Anavi laqmalarni tuzog‘imizga yetaklab kelguningcha o‘z holingga qo‘yib berdik. Bizni istaganingcha haqorat qilding. Bundan keyin ortiqcha aljiramasliging uchun, seni boshqalardan oldinroq gumdon qilamiz.

Egizaklarning hazillashmayotganini sezgan Uloqcha katta xato qilib qo‘yganini angladi. Bo‘rilarga nafratli tikilib turgach, Ho‘kiz og‘aning pinjiga suqilib turib qichqirdi:

– Qonxo‘rlar! Yolg‘onchilar!

– Kim yolg‘onchi? – kinoyali tirjaydi Ashqal. – Biz bitta seni aldagan bo‘lsak, sen birvarakayiga to‘rttasini laqillatding-ku. Eng katta yolg‘onchi o‘zingsan.

Uloqcha o‘zining ham, boshqalarning ham o‘limi yaqin ekanligi va bu fojiaga uning esi pastligi, o‘zbilarmonligi sababchi bo‘layotganini payqab, yuragini vahima qopladi. Ho‘kiz og‘aga gunohkorona kepatada boqib, mungli ma’radi:

– Og‘ajonim! Bu o‘qimaganlar qadrdon do‘st bo‘lamiz, deb boshimni aylantirishdi. O‘shanda meni yemasdan qo‘yib yuborishgani uchun, gaplariga ishongan edim.

Ho‘kiz og‘aning ichi to‘liqib, pishillab qo‘ydi.

– Eh, sodda Uloqcha! – kuyinib pishqirdi u. – Yirtqichlar xonakilarga do‘st bo‘lishi mumkinmas. Axir, ular bizni tinch qo‘yishsa, o‘zlari ochlikdan o‘lib ketishmaydimi? Shuni vaqtida tushunganingda, yaxshi bo‘lardi.

– Sen bu farosating bilan ko‘p ulug‘vor ishlar qilishing mumkin edi, – endi Ho‘kiz og‘ani mazaxlashga o‘tdi Dashqal. – Lekin, aqling bilan kuchingdan o‘rinli foydalana olmading. Chunki, qo‘rqoqsan. Bo‘ysunuvchanliging seni shu tirmizak echkibolaga tobe qilib qo‘ydi.

Natijada, anavi nimjon Qo‘zichoqdan hech qanaqa farqing qolmadi. Endi hammang bitta qozonda qaynaysan.

– Yo‘q, – dedi Ashqal. – Ho‘kizni ko‘pchilik bo‘lib “qarg‘acho‘qish” qilamiz. Zo‘r tomosha bo‘ladi.

Dashqal nechog‘li befahm bo‘lmasin, taqsimlash vaqtida qancha kam tumshuq ishtirok etsa, o‘ljadan tegadigan ulush shuncha ko‘p bo‘lishini yaxshi bilardi. Akasining gapidan uning dili g‘ashlandi.

– Qanaqa ko‘pchilik? – dedi u achchig‘lanib. – Yangi g‘alvani boshlamay turgin.

Ilgari aytib o‘tganimizdek, Ashqal o‘zining dono va ustamonligini butun Olatoqqa ovoza qilishni istardi. Qolaversa, to‘daboshilikka bo‘ladigan saylovlarda bu narsa asqotib qolishi hech gap emasdi. Bo‘rilar esa, shunaqa ovsar toifaki, o‘zlari yeb ko‘rmagan narsalar haqidagi quruq mishmishlarga sira ishonishmaydi.

– Nima, bugun tug‘ilgan kunimiz ekanligi esingdan chiqdimi? – ochko‘z ukasini yo‘lga solish uchun qulay bahona izlab topdi Ashqal. – Oshna-og‘aynilarni to‘plab, kattakon bazm qilmaymizmi?

– Hm… shunaqa degin? – o‘ylanib bosh qashladi Dashqal. – Ha, mayli, bazm bo‘lsa, bazm-da…

Ular mo‘ltirab turgan xonaki hayvonlarga masxaraomuz tirjayishdi. So‘ng qo‘rg‘ondan chiqishib, yog‘och darvozani jipslab berkitishdi-da, orqasiga katta-katta toshlarni tirab qo‘yishdi.

– Sen borib, obro‘li-obro‘li bo‘rilarni ziyofatga aytib kel, – deya ukasiga tayinladi Ashqal. – Men bularga ko‘z-quloq bo‘pturaman. Eng oldin to‘da boshlig‘iga uchrash. Kechqurun Toshqo‘rg‘onda go‘shtxo‘rlik bo‘ladi degin.

– Bazm-ku yaxshi narsa-ya, – ichga tortib ketgan qornini silab, paysallandi Dashqal. – Harqalay, avval o‘zimiz chalaziyofat qilvolsak, savob bo‘lardi.

Ukasiga qo‘yib bersa, uning chalaziyofati uch kunga cho‘zilishi mumkinligini Ashqal yaxshi bilardi. Shu bois avaylabgina ra’yini qaytardi:

– Oldin aytganlarimni bajarib kel. Qaytganingdan keyin, yolg‘onchi Uloqvoyni ikkovimiz “arra” qilarmiz.

Akasi loaqal bitta o‘ljani ikkiga taqsimlashga rozi ekanidan quvonib ketgan Dashqal, oyog‘i olti bo‘lib chopqillaganicha, dara tomonga yo‘l oldi. Tungi ovga kuch to‘plab, o‘z g‘orlarida shirin tushlar ko‘rib yotgan bo‘rilarni Toshqo‘rg‘ondagi bazmdan ogoh etishga oshiqarkan, yumshoqbadan Uloqchani ko‘z oldiga keltirgan kuyi yo‘l-yo‘lakay shodon ashula aytib borardi.

Uloqchaning ulog‘idan,

Cho‘zish kerak qulog‘idan.

Ba’zi birov qo‘rqar emish

Uning baland dimog‘idan.

Uloqchaning ulog‘idan,

Cho‘zish kerak qulog‘idan.

Uloqchani yegan tuzuk,

Osib qo‘yib tuyog‘idan…

Qaqshatqich jang

Boshqalardan koʻra olgʻir va surbet boʻlgani uchun oʻzini hammadan aqlli deb bilgan 0099 raqamli Uloqcha qoni boshqa yovvoyilarning makriga uchib yanglishganidan qattiq azob chekib, boshini quyi solganicha chetda yolgʻizlanib turar, sheriklarining koʻziga qarashga botina olmayotgan edi.

“Oʻzim-ku, fermani oʻlgudek yomon koʻrardim-a, – pushaymonlanib oʻylayotgandi u.

– Yaylovga kelib, nega yana oʻsha la’nati tartiblarga yopishib oldim? Erkin podaga qoʻshilvolib, tinchgina tirikchilik qilib yuraversam boʻlmasmidi?”

Uloqcha hali juda yosh edi. Takabburlik, faqat oʻz nafsi-yu, oʻz quvonchini oʻylash, oddiy hayvonlarning nafsoniyatini toptash oʻziga nisbatan ashaddiy dushmanlik ekanini toʻliq idroklab ulgurmagandi. Buni endigina oz-moz anglay boshladi. Afsuski, ancha kech boʻlgandi.

– Nega soʻljayib qolding, echkivachcha? – Uloqchaga yaqinlashib, alamini sochdi Boʻtaloq. – Boʻrilarning poʻstagini qoqmading-ku. Qiziq! Ular tuyogʻingniyam yalashmadi.

Kutilmaganda Eshak ham jahllanib, sobiq boshligʻiga davara qila ketdi:

– Kimsan oʻzing? Sendaqa xoʻjayinlardan koʻpini koʻrganman! He yolgʻonchi!

– Toʻgʻri! – deb hoʻmraydi Qoʻzichoq.

– Kelib-kelib, bitta buloqdan suv ichib yurgan birodarlarini aldadi-ya, – qoni qaynab depsindi Bo‘taloq. – O‘z qondoshlarini begonalarga yem qilayotgan senday sotqinga tupurdim!

Ho‘kiz og‘a odatdagidek royish va mulohaza bilan gapga qo‘shildi:

– Hozirgi qaltis vaziyatda bunaqa janjaldan foyda yo‘q. Undan ko‘ra, ahil fikrlashib, qanday qutulishni o‘ylaylik. Uloqchaga kelsak, ana, qilgan ishidan o‘ziyam mulzam bo‘pturibdi.

– To‘g‘ri! – Uloqchaga birdan rahmi kelib, Ho‘kizga yon bosdi Qo‘zichoq.

Bo‘taloq Ho‘kiz og‘aning o‘gitiga quloq solgisi kelmay, battardan qizishdi:

– Tupurdim uning uyalishiga!

– Qarang-ga, sotqinlik qildi-ya, – deb shovqin soldi Eshak. – Bundaylarni tepib o‘ldirmoq kerakdur!

– To‘g‘ri – dedi kallani ishlatib o‘tirmay Qo‘zichoq.

Alamzada bandilar Uloqchani yana ko‘p gapbo‘ron qilishlari mumkin edi-yu, qo‘rg‘on darvozasi ochilib, ichkariga egizak bo‘rilar kirib kelishgach, so‘zlari bo‘g‘zida qoldi. Dashqal podadagilarga tirjayganicha birma-bir ko‘z tashladi:

– Shapaloqbazm boshlanishining ustidan chiqdik shekilli? Mehmonlarimiz ziyofatga yetib kelguncha, bir-birlaringni yeb qo‘ymanglar tag‘in, og‘ayni chalishlar. Xex-xex-xe…

– Agar janjal kim birinchi bo‘lib ustixonga aylanishning ustida ketayotgan bo‘lsa, bunga hojat yo‘q, – to‘kilajak qon haqida vahshiylarcha xotirjamlik bilan gapirdi Ashqal. – Biz eng oldin baxtiyor Uloqvoyning tuzini totishga qaror qildik.

Qo‘rqib ketgan Uloqcha chopib borib, qaytadan Ho‘kiz og‘aning pinjiga kirdi. Tuyoqlari qaltirab, o‘z-o‘zidan cho‘kkalab qoldi.

Dashqal: “Muncha tarang qilasan, uka? Qani, buyoqqa yugurvor-chi!” – deya Uloqchani o‘ziga imladi. Ashqal esa: “Nima, biz seni qassobga berarmidik? Shunaqayam avaylab yeymizki, o‘zing ham bilmay qolasan”, deb uning ko‘nglini ko‘targan bo‘ldi.

– Xomtama bo‘lma! – qahr bilan Ashqalga pishqirdi Ho‘kiz og‘a. – Toki men tirik ekanman, Uloqchaga yaqinlashish xayolinggayam kelmasin!

– Nima balo, bu gaping bilan, meni hammadan oldin yenglar demoqchimisan? – Ashqal qonga to‘lgan ko‘zlarini Ho‘kiz og‘aga qadadi.

Nayrangvoz Dashqal esa, masalani boshqa yoqqa burib, o‘zga hayvonlarni Ho‘kiz og‘aga qarshi qayramoqchi bo‘ldi:

– Do‘stlaringni hurmat qilsang-chi, uyatsiz! Nega zo‘ravonlik bilan o‘zingdan kichiklarning navbatini olyapsan? Qo‘yvor bechora Echkibolani!

– Lo‘ttivozlikni yig‘ishtir! – g‘azabnok mo‘vradi Ho‘kiz og‘a. – Uloqdan umidingni uz!

Egizaklar biri: “Shunaqami hali?” – deb, ikkinchisi “Unda, o‘zingdan ko‘r!” – deya po‘pisalab, qonsiragan vajohatda Ho‘kiz og‘ani ikki yoqdan iskanjaga ola boshladilar. Ho‘kiz og‘a bor kuchini bo‘yin va tuyoqlariga jamlab, hayot-mamot jangiga hozirlandi.

Dashqal raqibining kekirtagini mo‘ljallab turib, bor basti bilan oldinga otildi. Ammo, Ho‘kiz og‘a qo‘pol gavdasiga xos bo‘lmagan chaqqonlik ila uni shoxlari orasiga qo‘ndirib oldi-yu, chirpiraklatib chetga uloqtirdi. Dushmanining bir lahza himoyasiz qolganidan foydalangan Ashqal bir tumshuq urib, Ho‘kiz og‘aning chap biqinidan parcha go‘sht

uzib olishga ulgurdi. Garchi, Bo‘taloq bilan Eshak ham beixtiyor bu olishuvga kelib qo‘shilishgan bo‘lsa-da, jangdagi asosiy og‘irlik hanuz Ho‘kiz og‘aning zimmasida turar, bo‘rilar birinchi galda uni safdan chiqarishga harakat qilishayotgandi.

Jang qizib boraverdi. Bo‘taloqning junlari to‘zib, Eshakning lunjidan oq ko‘pik sachray boshladi. Qo‘zichoq orqa tuyoqlarida yerni timdalab, yirtqichlarga mayda toshchalarni yog‘dirar, Uloqcha bo‘lsa, qo‘rg‘onning ichki devorchalari ustida dik-dik sakrab, egizaklarning boshiga g‘ishtlarni nuratish bilan ovora edi.

Bo‘rilarning asosiy hujumini qaytarayotgan Ho‘kiz og‘a, tanasidagi jarohatlar ko‘paygani sayin, tobora holsizlanayotgan edi. Ko‘p qon yo‘qotgani bois, ko‘zlari tinib, boshi aylana boshladi.

“Tamom! – deb o‘yladi u, gandiraklaganicha olishuvni davom ettirayotib. – Endi hammasi tamom bo‘ldi!”

Uning ko‘z o‘ngida tuyalardek o‘rkachdor adirlar, adirlar etagiga borib tutashuvchi ko‘m-ko‘k yaylov, dengizsimon o‘tloqdagi turfarang chechaklar, chechakdan-chechakka giz-gizlab yurguchi bolari-yu kapalaklar suratdek jonlandi. Keyin ola sigirning biqiniga ishqalanib erkalanayotgan novvoschani esladi. Bu uning yoshlik chog‘lari edi. Birdan nigohi qarshisida nimadir yarq etib chaqnadi. Omoch shekilli bu. Nahotki, uni yana qo‘shga qo‘shishmoqchi?

Tanasi “Jiz!” etdi-yu, Ho‘kiz og‘a hushini yig‘di. Bo‘rilardan biri uning ko‘ksidan yana bir parcha etni uzib olgandi.

“O‘ladigan bo‘lsam, loaqal bitta yirtqichni tilkalab o‘lishim kerak! – deya xayolidan o‘tkazdi u. – Shuncha qo‘rqib yashaganim yetar!”

Ho‘kiz og‘a oxirgi kuchini to‘plab, Ashqalga tashlandi, uni burama shoxlariga ilib olib, shartta devorga qisdi. Bunday sharoitda o‘zini ikkinchi bo‘ridan himoya qila olmasligi, Dashqal birinchi hamladayoq

uning qornini yorib tashlashligini sezib tursa-da, dushmanini bor basti bilan devorga niqtashda davom etdi.

Dashqal changak tishlarini bir-biriga qayrab, Hoʻkiz ogʻaning yon tomoniga oʻtdi. Biroq, raqibini chavaqlab tashlashga ulgurmadi, tuyqus paydo boʻlgan Eshakning tepkisidan miyasi qattiq lat yeb, yumalaganicha devorga borib urildi. Boshini silkib-silkib, gandiraklagan holda oʻrnidan turarkan, qari Hoʻkizning baquvvat shoxlari orasida uvillab jon berayotgan akasiga endi yordamning hojati yoʻqligini angladi. Qochishdan oldin, bora solib, Uloqchaga yopishdi, boʻynining tepasidan tishlab, yelkaga oʻngardi-yu, jon halpida darvoza tomonga yugurdi.

– Hoʻkiz ogʻa! Hoʻkiz ogʻa! – Dashqalning yelkasida tipirchilab borayotib, bor ovozda zorlandi Uloqcha. – Yordam beringlar!

– Uloqni opqochdi-yov! – hayajonlanib baqirdi Eshak. – Ushlagaymiz oʻgʻrini!

Qoʻzichoq qoʻrqqanidan qattiq maʼrab yubordi. Boʻtaloq jahl bilan yerga tupurib, Eshakning ortidan tashqariga qarab chopdi. Hoʻkiz ogʻa allaqachon tinchib qolgan Ashqalni chetga uloqtirib, Eshak va Boʻtaloqning ketidan yugurmoqchi boʻlganida, uch-toʻrt qadam bosib-bosmay, birdan tentiraklab yiqildi. Qoʻzichoq uning ustiga kelib, maʼrab-maʼrab yigʻlashga tushdi.

0099 raqamli Uloqchani yelkalagan kuyi tashqariga otilib chiqqan Dashqal soʻqmoqni changitganicha dara tarafga chopdi. “Akamning oʻlgani ajab boʻldi, endi Uloqni bitta oʻzim xap-xap qilaman”, deya yoʻl-yoʻlakay oʻylab borayotganida, qarshisidan oʻqdek uchib kelayotgan Olaparni koʻrib, koʻzlari olaydi. Oʻljasini chetga otib, tomogʻi yirtilgudek irillagan asno itga tashlandi.

Olapar bir necha chaqirim joydan chopib kelib, hansirab qolgan boʻlishiga qaramay, boʻrini dastlabki hamladayoq tagiga bosib oldi, hali u, hali bu yeridan tishlab, mushukka oʻxshatib piypalashga tushdi.

Dashqal o‘tkir tirnoqlarini do‘layib, uning ko‘ziga chang solmoqchi bo‘lganida, Olapar raqibining oldingi oyoqlarini ayamay g‘ajib tashladi. Toshqo‘rg‘ondagi hayvonlar oqsab-to‘qsab tashqariga chiqib kelishgan mahalda, a’zoyi badani qonga belangan yirtqich Dashqal chalajon sulayib yotardi.

– E, qoyilman! – Olaparga yaqinlashayotib, quvonch bilan qichqirdi Bo‘taloq. – Birpasda surobini to‘g‘rilab qo‘yibsan-ku.

– Bormisan, akasi bo‘yidan? – iljaydi Eshak. – G‘alaba muborak bo‘lgay!

Qo‘zichoqni yetaklab olgan Ho‘kiz og‘a zo‘rg‘a odimlab kelib, bir sulayib yotgan Dashqalga, bir g‘olibona ko‘krak kerib turgan Olaparga ko‘z tashlagach, dedi:

– Vaqtida yetib kelganing yaxshi bo‘ldi, Olapar. Rahmat senga.

Qo‘zichoq diriklab kelib Itga suykandi-yu, yana yig‘lab yubordi.

– Sizlar menga emas, Quyonga rahmat aytinglar, – kamtarinlandi Olapar. – Agar u menga xabar qilmaganida…

Birdan uning gapi bo‘linib, tevarakka alangladi va: “Hov! Vov! Qayoqdasan, Quyonjon?” – deb akilladi.

– Kak-ku! – Quyon oldin ovoz qildi, so‘ng qiyalikdagi harsang yonidan mo‘ralab, turganlarga g‘ilaylanib jilmaydi. – Mana men!

– Qarang-ga, qarang-ga! – to‘lqinlanib ketdi Eshak. – Bu o‘zimizning azamat ukamiz-ku! Salomat bo‘lgaysan, Dingirvoy!

– Ko‘nglimga havotir tushib, orqalaringdan poylab kelganidim, – dedi Quyon. – Bo‘rilarning qopqoniga tushganlaringni ko‘rdim-u, Olapar to‘g‘risidagi gaplaringni eslab, Chimtepa qishlog‘iga qarab chopdim.

– Umringdan baraka top, Dingirvoy, – uni duo qildi Hoʻkiz ogʻa. – Bagʻoyat aqlli Quyon ekansan.

– Toʻgʻri! – deb bosh irgʻadi Qoʻzichoq.

Ozodlik tekin ovqatdan ham zoʻr narsa. Yirtqichlarning xoʻrlovlaridan xalos boʻlishgach, sobiq bandilarning zardobga toʻlgan dillari tuyqus yashnab, tund chehralari birpasda yorishib ketdi. Faqat 0099 raqamli shoʻrpeshana Uloqchagina nariroqdagi chagʻir tosh ustida koʻzlarini yerga qadab, jimgina mungʻayib turardi. Quvonchli damda eng kekchi jonivor ham eski gina-kuduratni butunlay unutib yuboradi deyishardi. Boʻtaloqda yuz bergan oʻzgarish bu soʻzning toʻgʻriligini yana bir bor tasdiqladi. U yon-veridagilarni jilmayganicha turtkilab, Uloqcha tarafga imo qildi. Hayvonlar bir-birlariga qarab, ma’nodor kulib qoʻyishdi. Hoʻkiz ogʻa oqsab Uloqchaning yoniga bordi va xotirjam qiyofada soʻz qotdi:

– Nimaga bir chekkada shumshayi-i-b turibsan? Bunaqa qilishing yaxshimas.

– Nimadan xursand boʻlay, Hoʻkiz ogʻa? – yigʻlamsirab javob qildi Uloqcha. – Oqsoqollik qoʻldan ketgani mayli-ya, endi men bilan hech kim oʻrtoq ham boʻlmaydi.

– Qoʻysang-chi, – deya e’tiroz bildirdi Hoʻkiz ogʻa. – Men bu podadagilarni juda yaxshi bilaman. Bari ochiqkoʻngil. Agar, chinakam baxt boshqalarning baxti uchun yashashda ekanligini tushunib yetgan boʻlsang, menimcha, ular seni kechirishadi. Xohlasang, hoziroq hammasi bilan yarashtirib qoʻyaman.

Uloqcha picha oʻylanib turgach, bir sakrab, toshdan tushdi.

– Yoʻq, Hoʻkiz ogʻa, – dedi u birdan dadillashib. – Ular bilan yarashishga oʻzim urinib koʻraman.

Ho‘kiz og‘a bu gapdan quvonib ketib: “Balli! Juda yaxshi o‘ylabsan”, deya uning yelkasiga tumshuq bosdi.

Uloqcha o‘ng‘aysizlangan qiyofada hayvonlar davrasiga yaqinlashdi. Turganlarga bir-bir qarab olib, duduqlanganicha gap boshladi:

– Osh… oshnajonlar! Bir bog‘ xashakdan garov o‘ynashim mumkinki, men endi… endi men…

– Qiynalmay qo‘yaqol, – uning gapini bo‘ldi Quyon. – Nima demoqchi bo‘layotganingni hammamiz bilib turibmiz.

– Akkash ham tushunib turibdi, – gerdaydi Eshak. – Nima, kallam oshqovoqmidi?

Kayfiyati ochilib turgan Bo‘taloqning yanada zavqi jo‘shdi:

– Tupurdim bunaqa hafagarchilikka! Biz bilan birga quvonsang-chi, birodar!

– To‘g‘ri! – iljayib qichqirdi Qo‘zichoq.

Olapar Uloqchaning yoniga kelib, uni o‘z o‘rtoqlari safiga qabul qilganini bildirib qo‘yish uchun uning tumshug‘i va tamg‘ali qulog‘ini mehribonlarcha hidladi. So‘ng yangi do‘stining bo‘yni ustidagi qonlarni avaylab yalashga tushdi. Itning so‘lagi har qanday yaraga o‘tkir malham bo‘lishligini yaxshi bilgan Uloqcha unga minnatdorchilik bilan ko‘z tashlab qo‘ydi.

– Hechqisi yo‘q, og‘ayni, – sobiq oqsoqolga taskin berdi Olapar. – Begonalarning badanimizda qoldirgan yaralari ertami-kech bitib ketaveradi. Ishqilib, bir-birimizning yuragimizni jarohatlamasak bo‘lgani. Bunisi yomonroq, hov, vov!

Uloqcha kumush qo‘ng‘irog‘ini bo‘ynidan yulqib olib, uni jon talvasasida xirillab yotgan yirtqich Dashqalning tumshug‘i ostiga itqitdi.

Ko‘ngli birdan yengil tortdi. Bu paytda boshqalar ham o‘zlarini qayta tug‘ilgandek his etishib, to‘yib-to‘yib nafas olishayotgandi.

1979 yil

Anvar OBIDJON